

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”
Tarix fakulteti dekani
_____t.f.n. V.Ishquvvatov
2014 yil «_____»_____

5141500 – Tarix fakulteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”
bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Utbosarov Alijon Ruzbayevichning

**“Alisher Navoiy ijodiy merosida insonparvarlik g‘oyalarining aks etishi va
ularning yosh avlod ma’naviy kamolotidagi o‘rni”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: “Milliy g‘oya va
ma’naviyat asoslari” kafedrası katta
o‘qituvchisi _____
c .f.n. X.Jumaniyozov

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari”
kafedrası mudiri_____f.f.n.M.A. Sobirova
2014 yil “_____”_____

Toshkent – 2014

Mundarija

KIRISH

I-BOB. INSONPARVARLIKKA ASOSLANGAN TARBIYANI YO'LGA QO'YISHDA ADABIY MEROSNI O'RGANISHNING AHAMIYATI.

1.1. Yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda adabiy merosning ahamiyati va roli.

1.2. Yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda Navoiy merosining o'rni.

II-BOB YOSH AVLODNI INSONPARVARLIK RUHIDA TARBIYASIDA ALISHER NAVOIY IJODIY MEROSIDAN FOYDALANISH.

2.1. "Xamsa" dostonida inson kontseptsiasining g'oyaviy asoslari.

2.2. «Saddi Iskandariy» dostonida yoshlar tarbiyasi masalasi.

2.3. «Farhod va Shirin» dostonida komil inson timsoli va uning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati.

III-BOB. MAVZUNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

3.1. Yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda badiiy adabiyot imkoniyatini targ'ib qilish usullari.

3.2. "Alisher Navoiy ijodiy merosida insonparvarlik g'oyalarining aks etishi va ularning yosh avlod ma'naviy kamolotidagi o'rni" mavzusi bo'yicha dars ishlanmasi.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Muammoning dolzarbligi. Har bir xalqning butun dunyo taniydigan, butun dunyo tan olgan ulug' farzandlari bo'ladi. Alisher Navoiyni esa dunyo XV asrda – shoir hayotligidayoq tan olgan. Mana, besh asrdan ziyod vaqt o'tibdiki, turli millat va xalqlar daho shoirimizning durdona asarlaridan bahramand bo'lib keladi.

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Yoshlarni tarbiyalashda ilmiy-ma'naviy qadriyatlarning o'rni juda katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu haqda gapirganda Navoiyni eslash muhimdir. Xalqimizning yuksak adabiy merosiga, qadriyatlariga, tiliga bo'lgan "... muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz".¹

Yoshlarda o'tmish merosiga hurmat ruhini shakllantirish, ularni vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda insoniylik, mehnatga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash yoshlar tarbiyasining muhim tomonlari hisoblanadi. Ushbu masalalar Alisher Navoiyning qator asarlarida turli obrazlarda o'z aksini topgan. Navoiy o'zbek adabiyotida (o'ziga qadar bo'lgan ruboiylarga nisbatan) eng ko'p ruboiylar yaratib, bu she'riy shaklni birinchi darajali (g'azal, masnaviy kabi) janrlar qatoriga olib chiqdi, uning tematikasini kengaytirdi, falsafiy salmog'ini oshirdi, ruboiyga hayotiy masalalarni olib kirib, bu janrni turmushga yaqinlashtirdi. Navoiyning ruboiylari hayotiy voqea ta'sirida yuzaga kelganligi va uslubi original va obrazlarining konkret bo'lishi bilan ajralib turadi. Navoiy ruboiylarida muhim ijtimoiy masalalarni turli xil poetik priyomlar va badiiy vositalar orqali ifodalagan. Bu esa uni chinakam she'riy javohirlar darajasiga ko'targan. Alisher Navoiyning ijodiy merosi – o'zbek madaniyatining, umuman, jahon madaniyatining boqiy qadriyatlaridandir. Binobarin, biz yoshlar – uning vorislari bu buyuk merosga g'oyat katta hurmat – e'tibor bilan, e'zozli munosabatda bo'lishimiz zarur.

Alisher Navoiy jahon adabiyotining ulug' namoyondalaridan biri ekanligini bilamiz. U butun faoliyati va ijodiyotini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligi, obodonchilik ishlariga, ilm-san'at va adabiyot taraqqiyotiga bag'ishladi. Ye.E. Bertels "Lisonut-

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T "Ma'naviyat". 2008. 47-48 betlar

tayr” asaridagi hikoyalar munosabati bilan to‘g‘ri ta’kidlab o‘tganidek, ko‘pgina epizodlarning (ya’ni hikoyat, rivoyat) paydo bo‘lishi Navoiyning boy hayotiy tajribasi bilan bevosita aloqador¹.

Biz Alisher Navoiyni mutafakkir shoir sifatida ulug‘laymiz. Mutafakkir so‘zining ma’nosi tafakkur sohibi, keng va chuqur falsafiy mushohada yuritish istehdodiga ega bo‘lgan kishi degani. Bu ish har qanday iqtidorli qalam ahlining ham qo‘lidan kelavermaydi. Shuning uchun ham dunyoda shoiru yozuvchi ko‘p o‘tgan bo‘lsada, ulardan juda oz qismigina bu sharaflilik nomga loyiq ko‘rilgan. “Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”.²

Alisher Navoiy asarlari yaxlit olganda hayot qomusiga o‘xshaydi. Chunki biror-bir hayotiy masala, insonga xos qadriyat va tuyg‘ular yo‘qki, u qalamga olmagan bo‘lsa, inson tarbiyasi, kamoloti masalalarini o‘zbek adabiyotida hech kim Navoiydek kuylamagan.

Alisher Navoiy ijodi o‘ziga xos hikmat bo‘stonidir. O‘zingizda tug‘ilgan har qanday savolga javob izlab, unga murojaat qilsangiz, ahvoli ruhiyatinga mos bir hikmat topib, maqsadingiz hosil bo‘lishi, ko‘nglingiz taskin topishi shubhasiz. Shoir asarlari, hikmatlari hayotdan olinganligi, shaklan go‘zal, mazmunan teran, badiiy yuksak ekanligi uchun ham biror-bir zamonda o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, barcha toifaga mahqul bo‘lib kelyapti va to yer yuzida inson avlodi yashar ekan, ularning qimmatini zarracha kamaymaydi, bilg‘aks tobora ortib boraveradi.

Komillikdagi eng birinchi belgi halollik va poklikdir. Shoir o‘z asarlarida inson kim bo‘lishidan qathiy nazar, halol va pok bo‘lishi kerak, deydi. Alisher Navoiy orzu qilgan halol va pok inson nafaqat tashqi qiyofa, balki ichki ma’naviy qiyofaga ega bo‘lgan insonlardir. Masalan, Farhod, Iskandar, Majnun, Suhayl, Navfal, Shirin, Layli, Dilorom va boshqalar halollikning timsollaridir.

Muammoning ilmiy o‘rganilganlik darajasi. Ma’naviy tarbiya, milliy-ma’naviy meros, Navoiy ijodiy merosi, undagi insonparvarlik g‘oyalaridan ta’lim-tarbiya tizimida foydalanish masalalari Prezidentimizning bir qator asarlarida, Vazirlar maxkamasining qarorlarida o‘z aksini topgan. Shuningdek Yo.Ishoqov. Najmiddin Komilov Ye.E.Bertels, Fitrat domla, Sadriddin Ayniy, Olim Sharafuddinov, Oybek, Maqsud Shayxzoda, Porso Shamsiyev, Hamid Sulaymon, Vohid Abdulla, I.Haqqul, I.Yo‘ldoshev va boshqa bir qator tadqiqotchilar tomonidan taxlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti. Milliy g‘oyani yoshlar ongiga singdirishda, yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalashda, ushbu fazidatlarni ularning amaliy ko‘nikmalariga aylantirishda xalqimizning boy ma’naviy merosi, jumladan

¹ Bertels Ye.E. Navai i Djami. M., 1965 s. 184

² Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. 47-b

Alisher Navoiy ijodiy merosidan keng foydalanish, bu borada ta'lim-tarbiya tizimi oldida turgan vazifalar, ularni amalga oshirish jarayonlari, ular bilan bog'liq muammolar ilmiy ish ob'ektini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishda, yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashda, ushba fazidatlarni ularning amaliy ko'nikmalariga aylantirishda Prezidentimiz asarlaridagi g'oyalar, ilgari surilayotgan vazifalar, xalqimizning boy ma'naviy merosi, jumladan Alisher Navoiy ijodiy merosiga bag'ishlangan asarlar taqiqot terdmetini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Yoshlarni milliy ma'naviy merosimiz asosida yuksak, barkamol inson etib tarbiyalashda Alisher Navoiy ijodiy merosini o'rganishning yosh avlod ma'naviy tarbiyasida, ularni vatanparvar, insonparvarlik ruhida tarbiyalashdagi alohida ahamiyatini yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Yuqorida qayd etilgan maqsadni amalga oshirish uchun bitiruv malakaviy ishining vazifalari belgilab olindi:

- Mustaqil O'zbekiston davlati tanlagan ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot tizimida badiiy adabiyotning rolini ko'rsatish;
- Xalqimiz ma'naviy merosini tahlil etish;
- adabiy meros milliy ma'naviyatning muhim elementi va uning ommaviylashuvining muhim omili ekanligini ko'rsatish;
- xalqimizning ma'naviy merosida Alisher Navoiy merosi tutgan o'rnini tahlil etish;
- xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda Navoiy asarlaridagi g'oyalarda keng foydalanish;
- mustaqillik sharoitida ma'naviy-mafkuraviy salohiyatning rivojlanishda adabiyot oldida turgan vazifalarni aniqlash.
- ma'naviyatni mustaxkamlash borasida tegishli xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kabilardan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-metodologik asoslari. Prezidentimizning ma'naviyat, meros, yoshlar tarbiyasida Navoiy merosining ahamiyati, bu borada ta'lim tizimi oldidagi vazifalarga doir fikrlari, shuningdek yetakchi Navoiyshunos olimlarimizning mazkur masalaga doir qarashlari tadqiqot ishining nazariy-metodologik asosini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi. Ushbu ishda ilk bora yoshlar ma'naviyatini yanada mustahkamlashda, ularni milliy g'oyaga sadoqat ruhida tarbiyalashda, ular vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik goyalarini mustahkamlashda Alisher Navoiy ijodiy merosi, badiiy adabiyotning imkoniyatlari, uning ta'sir chora-tadbirlari to'g'risidaga to'plangan tajriba o'rganilgan, tahlil qilingan va ommalashtirilgan.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Yoshlar ma'naviyatini yanada mustahkamlashda, ularni milliy g'oyaga sadoqat ruhida tarbiyalashda, ular vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik goyalarini mustahkamlashda Alisher Navoiy ijodiy merosi, badiiy adabiyotning imkoniyatlari, uning ta'sir chora-tadbirlari to'g'risidaga to'plangan tajriba, taklif va xulosalardan birinchi navbatda milliy g'oya, mafkura, milliy ma'naviyat, milliy ma'naviy tiklanish, milliy o'zlikni anglash, yoshlarni milliy va umumiy va milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, yoshlarda vatanparvarlik, millatparvarlik ruhini tarbiyalash masalalari bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar o'z ilmiy izlanishlarida keng foydalanishlari mumkin. O'rta ta'lim maktablari, Akademik litsey va Kasb-hunar kollejlarida "Odobnoma", "Milliy g'oya", "Ma'naviyat asoslari" fanlaridan mashg'ulot olib boruvchi pedagoglar tegishli mavzularda keng foydalanishlari. Shuningdek Ma'naviyat-ma'rifat uyushmalari, "Kamolot" singari tashkilotlar o'z faoliyatlarini olib borishlarida tadqiqot materiallaridan foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Mavzu kirish, ikkita bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. MA'NAVIY TARBIYANI YO'LGA QO'YISHDA ADABIY MEROSNI O'RGANISHNING AHAMIYATI.

1.1. Yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda adabiy merosning ahamiyati va roli.

Milliy g'oyani singdirish usullari, texnologiyalari, ustuvor yo'nalishlari XXI asrda insoniyat o'z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi pallasiga qadam qo'ydi. Dunyoda katta o'zgarishlar sodir bo'layotgan bugungi kunda ijtimoiy makonni o'zlashtirishning yangi usullari, jumladan, yangi texnologiyalar keng rasm bo'ldi. Texnologiyalar asri deb atalayotgan XXI asrda ishlab chiqarishda joriy etilgan yangi texnologiyalar mehnat samaradorligini misli ko'rilmagan darajada o'stirib yubordi. Biroq yangi texnologiyalar faqat sanoat va qishloq xo'jaligida qo'llanilmayapti, balki ma'naviy, mafkuraviy jarayonlarda ham o'z samarasini ko'rsatmoqda. Mamlakatimizdagi mafkuraviy jarayonlarga ham shu nuqtai nazardan yondoshish milliy istiqlol g'oyasini targ'ib qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zaruratini ko'rsatadi. Milliy istiqlol g'oyasini xalq qalbi va ongiga singdirish muayyan texnologiya asosida olib borilganida tadbirlarning ketma-ketligi, miqyosi va me'yori, davomiyligi va tamoyillari singari jihatlar qamrab olinadi. Ularning muhimligi shunda ko'rinadiki, masalan, targ'ibotda me'yorning buzilishi, milliy mafkura to'g'risida hadeb va no'rin gapiraverish, me'yorni bilmaslik teskari samara berishi mumkin. Targ'ibot texnologiyasi milliy g'oya va milliy mafkura mazmun-mohiyatiga mos bo'lgan taqdiridagina kutilgan natijaga erishish mumkin. So'zsiz bu jarayonda badiiy adabiyotning o'rni, imkoniyati beqiyosdir. U o'zining ta'sirchanligi, jo'shqinligi, safarbarligi, optimizm ruhida ekanligi doimi xalq qalbini to'lqinlantirib kelgan.

Adabiyot milliy g'oyaning targ'ibot-tashviqotini tashkil etishda quyidagi tashkiliy tamoyillarga amal qilinishi maqsadga muvofiq:

- keng qamrovlilik, bunda jamiyatning barcha ahzolariga g'oyalar xilma-xilligi asosida mafkurani singdirish, bu jarayonda aholining barcha qatlamlarini qamrab olish nazarda tutiladi;
- uzluksizlik-milliy istiqlol g'oyasi targ'ibotining makonda va zamonda doimiyligini, uning yaxlit tizim shakliga keltirilishini anglatadi. Uzluksizlik tamoyili milliy istiqlol g'oyasini xalq ongiga singdirish uchun mamlakatda muayyan mafkuraviy maydon yaratishni taqozo qiladi. Bu maydondagi har bir holat va harakat, jumladan, ta'lim tizimidagi o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, sinf va auditoriyalar, ko'rgazmali qurollar milliy istiqlol g'oyasiga uyg'un bo'lishi talab etiladi;
- ketma-ketlik - har bir bosqich uchun istalgan qadriyatlarni singdirish maqsadida mafkuraviy tashviqot rejalashtiriladi;
- bosqichma-bosqichlik - milliy mafkurani targ'ib qilishning ruhiy jihatlar bilan bog'liq bo'lib, ham targ'ib qiluvchi, ham qabul qiluvchining muayyan tayyorgarlik bosqichlaridan o'tishini taqozo qiladi;
- me'yoriylik - aksiltarg'ibotni keltirib chiqaradigan, hayotdan uzilib qolishga olib keladigan balandparvozlik, rasmiyatchilik va takrorlanishlarga yo'l qo'ymaydi;
- shaxsiy ibrat – masalalariga o'zida obrazlar misolida katta e'tibor berish;
- ilg'or targ'ibot-tashviqot texnologiyalaridan foydalanish - bunda mafkuraviy targ'ibotga insonlarni mohirona boshqarish usuli sifatida qaraladi.

Mazkur targ'ibot tamoyillari milliy istiqlol g'oyasini inson ongi va qalbiga singdirishning barcha bosqichlari uchun umumiy va bir xil bo'lib, turli bosqichlarda, turli shakl va vositalardan foydalanganda odamlarning yoshi, kasbi, ma'lumoti kabi xususiyatlari hisobga olinadi. Targ'ibot olib borishda sanab o'tilgan tamoyillarning muayyan auditoriya xususiyatlariga mosligini tahminlash targ'ibot samaradorligini tahminlaydigan eng muhim omildir.

Targ'ib qilinayotgan g'oyalarning inson ongida axborot, ma'lumot tarzida o'rnashishi kifoya qilmaydi, ular insonning yurak-yuragiga yetib borganidagina ular inson qalbiga chuqur o'rnashadi. Buning uchun esa auditoriya targ'ibotchining milliy g'oyaga chuqur ishonchi va qathiyatini his qilishi kerak. Lekin targ'ibotda g'oyalarga e'tiborni tortish bilan ham qanoatlanish mumkin emas. Chunki e'tiborni jalb qilish - targ'ibotning birinchi bosqichi, xolos.

Targ'ibotning keyingi bosqichi g'oyani to'g'ri va atroflicha tushuntirishni, adabiyot bilan bog'liq barcha savollarga javob topib berishni talab qiladi. Chunki milliy g'oyani tushunish - unga ishonish demakdir. Ana shu yerda bir savol bilan to'qnashamiz: nima ko'proq ishonch uyg'otadi: jiddiy dalillar bilan asoslangan axborotni yoki hissiyotlarni uyg'otuvchi mahruzami? Targ'ibot davomida insonning hislariga, qalbiga murojaat qilish katta samara beradi, albatta.

Lekin ishonchli dalillar, e'tiroz uyg'otmaydigan hayotiy ma'lumotlarning keltirilishi bu g'oyalarni hayotga tatbiq qilishdan hammamiz manfaatdor ekanligimiz haqidagi fikrni uyg'otadi.

Targ'ibot jarayoni shu yerda tugaydi, deb o'ylaydiganlar katta xato qiladilar. Zero, mafkura yangi ishlarga ilhomlantiradi, harakatga undaydi. harakatsiz mafkura esa safсатаbozlikdan bo'lak narsa emas. Demak, insonlar milliy mafkuradan o'rin olgan g'oyalarga mos harakat qila boshlaganlaridagina milliy g'oya xalqning e'tiqodiga aylanganligi haqida xulosa qilish mumkin. «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir»¹.

Alloma bu fikri bilan farzand tarbiyasini nazarda tutdimi, avlod tarbiyasini yoxud millat tarbiyasi haqida gapirdimi? Har holda yosh vaqtdan boshlab bolaning «maslagini tuzatmoq» zarurligini ta'kidlaganida A.Avloniy fikr tarbiyasini nazarda tutgan ko'rinadilar. Va, tabiiyki, bunday tarbiya markazida birgina bola emas, bir oilaning farzandlari emas, balki butun millat, butun xalq turadi. Tarbiyani millat qismatini hal etuvchi darajaga ko'tarishning boisi ham shunda.

Avlodni kim tarbiyalaydi, millat qaysi sinflarda tarbiya topadi, fikr qaysi kitoblar yordamida tarbiyalanadi? Bularning barchasi haqida kim qayg'urishi kerak? Bu savolga tayyor javob bor: ota-ona, muallim, maktab, ta'lim vazirligi va oxir-oqibat davlat, jamiyat. Darhaqiqat, har bir davlat o'z fuqarolari bilimli, haq-huquqini taniydigan, ma'naviy barkamol, bir so'z bilan aytganda, komil inson bo'lib voyaga yetishi haqida qayg'uradi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov bu xususda shunday deydi: «Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb ehlon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz».

Badiiy adabiyot o'zlikni anglab yetishning mustaqil yo'li bo'lib, aslida taxayyul o'yinlari² vositasida Borliq haqiqatini modellashtirishga urinishdir. San'at turlari behisob, ularning har biri voqelikda mavjud muayyan imkondan foydalanadi. Haykaltarosh toshni "jonlantiradi", musavvir ranglar tovlanishini ishga soladi, musiqa san'ati inson tuyg'ulariga bevosita koinot uyg'unligini olib kiradi. Badiiy tafakkurning eng qudratli va imkoniyatlari cheksiz vositasi so'z san'atidir. Adabiyot inson ma'naviyatini shakllantiruvchi asosiy manbadir.

Inson xatti-harakat, imo-ishora bilan ham ko'p narsani tushuntira oladi. Ammo baribir so'z, inson nutqi axborot almashuvining bosh vositasidir. San'atni ham ahli basharning o'ziga xos axborot almashuv vositalaridan biri deb qarasak, so'z san'ati ushbu badiiyat dunyosida alohida mavqega egadir. Adabiyot inson tafakkurining, ma'naviyatining asosi va bosh ozig'idir. Chunki

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. 46-b

² "Imaginatsiya" (ruscha "voobrajenie") asotir tafakkur, falsafiy va badiiy tafakkurning asosiy quroli ekanligi taniqli rus olimi Ya. Golosovkerning "Logika mifa" kitobida ishonarli isbot qilib berilgan.

unda hayot aks etadi. Ammo o'z holicha, ko'zgudagidek emas, balki muallif maqsadiga bo'ysunib, uning nigohi orqali sizga ko'rinadi. Adabiy asar ko'z oldingizdan kechayotgan ayqash-uyqash hodisalar girdobini ma'lum ma'no tizimiga joylab, undan sizning ko'zingizga, ongingizga ma'no, mazmun chiqarib beradi. Endigina harfni harfga urishtirib kitob o'qishga o'rgangan besh-etti yoshli bola tevarak-atrofdagi hayotni qanday tahlil qilib, to'g'ri xulosalar chiqara oladi? Buning uchun unga kim yordam beradi? Albatta, birinchi navbatda, ona va otasi, opa-akalari, tarbiyachilari, atrof-muhitdagi insonlar ta'siri bo'ladi. Biroq ushbu insonlar ko'rsatadigan ta'sir, ular gapiradigan gaplar o'z navbatida ularning ong va saviya darajasiga, ularning o'zi hayotni qanday tushunishiga bog'liq. Kitob esa, agar arzigulik kitob bo'lsa, ma'lum ma'noda, umumbashariyat tajribasi asosida yozilgan, hayotning bir qirrasini bola uchun tushunarli usulda umumbashariyat ma'naviy olami ko'zgusi orqali xayrli bir niyat sari yo'naltirib aks ettirgan bo'ladi. Mana shu ma'noda adabiyotni inson ma'naviy dunyosining shakllanishidagi ilk va oziq vosita deya olamiz. Falsafiy va ilmiy dunyo daholari ham odatan badiiy adabiyot yo'rgagida voyaga yetadilar.

Adabiyot haqida yoshligidan kitobga mehri tushgan, kitob ichida o'sgan odamgina gapirishga haqli bo'lsa kerak. Keyincha katta bo'lib, sababi tirikchilik, adabiyotshunoslikka qo'l urgan kishilarning so'zlari bu dargoh uchun begona so'zlardir. Ular yo o'zgalardan ko'chirma qiladilar, yo chinakam adabiyot uchun yot bo'lgan qarashlarni unga tirkamoqchi bo'ladilar. Bu ishlarni ko'ra bila turib qiladilarmi, yo ko'r-ko'ronami, bunisining oxir-natija uchun unchalik ahamiyati yo'q.

Yoshligidan kitob o'qishga o'rgangan odam odatda falsafiy, siyosiy, diniy adabiyotdan boshlamaydi, avval badiiy adabiyot namunalari bilan tanishadi. Agar boshqa biror tur adabiyot qo'lga tushganda ham, tabiiy-ki, bola tafakkuri bilan uni tushunishga qodir bo'lmaydi. Badiiy asar unday emas, u yetti yashardan yetmish yashargacha hammaga tushunarli, hamma ham undan o'z fahm- farosatiga loyiq bir hissa chiqara oladi. Shu sababli adabiyot - ibrat maktabi, mehr parvarishidir. Mumtoz adabiyot Borliq haqiqatining botiniy jihatini zohiriy timsollar vositasida majoziy bayon etish qudratiga ega. Ana shu xislati tufayli u inson ruhini insoniy fazilatlar, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik bilan uyg'unlashtirishga yordam beruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

1.2. Yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda Navoiy merosining o'rni.

Badiiy adabiyotning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida uning nihoyatda qudratli kuch ekanligi ham yaxshi ma'lum. Yurtboshimiz

ta'kidlaganidek, «Istiqlol biz uchun taraqqiyotning butunlay yangi, keng ufqlarini ochdi. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan yaratadigan bo'ldik. Hayotimiz va umumiy xonadonimizni milliy manfaat va qadriyatlarimizga, umumehtirof etilgan demokratik mezonlarga monand qilib qurishdek noyob tarixiy imkoniyatga ega bo'ldik».¹

Ma'naviy barkamollik insonning ruhiy poklanishi, axloqiy ong va hissiyotlarga ega bo'lishi, halol va pok yashashni, mustahkam e'tiqodga ega bo'lishni oliy maqsad deb bilishidir. Aytish joizki, xalqimiz qadim-qadimdanoq ma'naviyat, axloq masalalariga alohida e'tibor qaratib kelgan.

Ajdodlarimiz ilm-fanning qaysi sohasi bilan shug'ullanmasinlar, inson ma'naviyatini shakllantirishga, ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berganlar. Jumladan, ma'naviy – axloqiy tarbiya masalalari Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Kaykovusning «Qobusnoma», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Sahdiyning «Guliston», Alisher Navoiyning barcha asarlarida keng yoritilgan.

Ta'lim-tarbiya masalalari insoniyat ma'rifatga intilgan paytdan boshlab qanchalar muhim omil bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham o'ta jiddiy, muhim va dolzarb masalalardan hisoblanadi. Chunki fan-texnika taraqqiyoti, zamonaviy kashfiyotlar insoniyatning qudratini oshiradi va yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Bunday holat insondan yanada yuksak ma'naviyat darajasiga ko'tarilishni talab etadi. O'z navbatida, yosh avlodning ma'naviy yuksalishi uning ijtimoiy faolligini oshiradi va jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi.

Bugun – XXI asrning birinchi choragida turib barcha muammolar qatoriga texnikaning, kompg'yuterlashtirishning oqibatlaridan biri sifatida badiiy asarni o'qishga bo'lgan intilish va rag'batlarning pasayib borayotganligi ham mutaxassislar tomonidan ko'p marotaba tilga olinmoqda. Endilikda adabiyot o'qitish, badiiy asarni o'qishga o'rgatishning eng ommaviy, eng zamonaviy, eng ta'sirchan shakl va usullarini izlab topish zarurati har qachongidan ham dolzarbroq bo'lib turibdi. Shunday ekan, adabiyotshunoslik fanlarini, badiiy adabiyotni o'rgatishni ko'zda tutadigan fan jamiyat ahzolariga, birinchi navbatda, o'quvchi-yoshlarga, talabalarga, qolaversa, shu sohaning bo'lajak mutaxassislariga qaysi usullardan foydalanish afzalliklarini ko'rsatib berishi, ularning oldida so'z san'atini o'rganish bilan bevosita aloqador bo'ladigan turli muammolarning hal qilinishiga yordam berishi lozim.

Adabiyotshunoslik yo'nalishidagi fanlarni o'qitishning nazariy muammolari ham oz emas. Birgina quyidagi savollar ustida o'ylab ko'raylik?

Badiiy asarni o'qitish va o'rgatishning asosiy maqsadlari sifatida nimalar belgilanishi lozim? Bolalarning qaysi yoshida badiiy adabiyotning qanday asarlarini o'qitish lozim? Har qanday badiiy asarni o'quvchilarga tavsiya etish mumkinmi va ular yoshlar axloqiy tarbiyasiga

¹ Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – T.: «O'zbekiston», 1997. - 105-bet.

xizmat qila oladimi? Yoshlarni badiiy asarlarni tushunishdagi qanday ehtiyojlar birinchi navbatda e'tiborda turishi kerak? Umuman, badiiy asar qanday tahlil qilinishi kerak? Bunda o'quvchilarning shaxsiy - individual xususiyatlarini e'tiborga olish qanday natijaga olib keladi?

Ko'rinib turibdiki, bu savollarga yengilgina javob berish mumkin emas. U ko'plab nazariy – amaliy masala va o'rganishni hamda hal qilishni taqazo etadi. Albatta, bu masalalarni hal qilish bir yoki ikki kishining qo'lidan kelmaydi. Buning uchun yirik adabiyotshunos va metodist olimlarning kuch va g'ayratlari safarbar qilinishi lozim. Shunga erishish kerakki, o'quvchi ta'lim jarayoni uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalana olsun, uning kuch - g'ayrati badiiy asarni o'rganish uchun bevosita badiiy asarni o'qib o'zlashtirishga yo'naltirilsin. Toki u badiiy asardagi asosiy va ikkinchi darajali voqea-hodisalarni ongli ravishda farqlay olish, ajrata bilish malakalarini egallasin.

Agar bo'lajak mutaxassis erkin, mustaqil, ijodiy fikr sohibi bo'lib yetishmas ekan, o'qituvchining har qanday mahorati, har qanday zamonaviy shakl va usullar, har qanday zamonaviy pedagogik texnologiyalar samarasizligicha qolaveradi.

Endigina shakllanib kelayotgan o'quvchining shaxsiga adabiyotning ko'rsatadigan axloqiy-ma'naviy, ma'rifiy, estetik hamda emotsional ta'sirining kuchayishi adabiyot o'qitish ishidagi eng muhim nuqtalardan birini tashkil etadi. Bu adabiy ta'limning barcha bosqichlarida uzluksiz tarzda takomillashib borishi shart bo'lgan jarayondir.

Boshqa bir misolni esga olaylik. “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” kitobida to'g'ri ta'kidlanganidek, «Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand etsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma'rifiy qurolga ega bo'lamiz»¹.

Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy ming yildan ziyod tarixga ega bo'lgan adabiyotimizdagi zullisonaynlik an'anasining zabardast vakili ham hisoblanadi. Zero, shoir yoshligidan tortib umrining oxirigacha o'zbek tilida shoh asarlar yaratish bilan birga, forsiy til va undagi adabiyotga mehr qo'ydi, “Mantiq ut-tayr”dek shoh asarni yodlab, keyinchalik o'zi ham bu tilda betakror g'azallar, qasida-yu ruboiy, qithalar ijod qildi; muxtarah, lug'azlar, juda ko'p muammolar bitdi. Benazir san'atkor o'zining ijtimoiy-falsafiy, islomiy-ma'rifiy, ilohiy, tarixiy ruhdagi turkum qasidalari “Arbahin”, “Sittai zaruriya”larni aynan forsiy tilda yozdi va bu bilan o'zining fors-tojik adabiyotidagi daho qasidanavislardan kam emasligini tasdiqlab qo'ydi.

¹ Karimov I. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”, 47-48-betlar

Mustaqil O'zbekistonning taraqqiyoti shu yurtda yashovchi har bir shaxsning, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy kamolotiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Chunki, ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Ilg'or millat va rivojlangan davlat bo'lishning zaruriy shartlaridan biri ham boy va sermazmun ma'naviyatga ega bo'lishdir. Faqat moddiy jihatdan boy hamda ilg'or bo'lish jamiyat norasoligining xolis ko'rsatkichidir. Shu bois, Prezident Islom Karimov tomonidan istiqlolning dastlabki yillaridanoq «Ma'naviy boylik – moddiy boylikdan ming bor ustun»¹ degan purma'no g'oya ilgari surilib, xalqimizning, ayniqsa, farzandlarimizning ma'naviy darajasini yanada yuksaltirish kelajagi buyuk O'zbekistonni barpo etishdagi eng dolzarb masalalardan biri ekanligiga katta ahamiyat qaratib kelinmoqda. Ayni zamonda, davlatimiz rahbari o'zining ko'plab nutq va ma'ruzalarida, asarlarida ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga azmu qaror qilgan xalqimizning boy merosi, bebaho qadriyatlari, ezgu niyat, orzu-umidlariga, shuningdek, umumbashariy qadriyatlarga asoslangan milliy mafkurani shakllantirish, ommalashtirish, kishilar ongiga chuqur singdirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratmoqda.

Prezident I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi masalasiga alohida bir bo'lim sifatida to'xtalishi bu masalaning bugungi kun uchun ham hayot-mamot darajasida o'ta muhimligidan dalolat beradi. Prezidentimiz bu borada quyidagi fikrlarni bildirishgan: «Ma'naviyatning inson va jamiyat hayotidagi mohiyati va ahamiyati haqida fikr yuritganda, bu borada asrlar davomida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan bir masalaga alohida to'xtalib o'tish lozim, deb o'ylayman. Ya'ni, odamning kundalik hayoti va faoliyatida moddiy va ma'naviy asoslar bir-biriga nisbatan qanday o'rin tutishi, ularning qaysi biri ustuvorlik kasb etishi haqida turli-tuman, ba'zan esa ziddiyatli fikr va qarashlar mavjud bo'lganini va bunday tortishuvlar hozirgacha davom etayotganini kuzatish qiyin emas»².

E'tibor bering: inson dunyoga kelgan ondanoq o'zining jismonan va aqlan kamol topishi uchun zarur bo'lgan ona sutiga va ona allasiga ehtiyoj sezadi. Biri ikkinchisiz murg'ak go'dakning komillik darajasiga yetishishida muayyan salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligi hammamizga yaxshi ayon. Demak, inson farzandi dunyo yuzini ko'rgan dastlabki ondan e'tiboran moddiy va ma'naviy olamga zarurat sezadi. Murg'ak qalbning ilk kunidanoq ham jismonan, ham aqlan kamol topishiga e'tibor qaratish kelajakka bee'tibor bo'lmaslik, unga o'ta mas'uliyat bilan qarash, demakdir. SHu bois ham bu ikki olam bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslanadi. «Qachonki ana shu ikki muhim omil o'zaro uyg'unlashsa,

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar. 7-jild. – T.: O'zbekiston, 1999. – B.246.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.65

tom ma'nodagi qo'sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o'sish-o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'ladi»¹.

Inson vujudi, amaliy faoliyatida ruhiy, ma'naviy tomonlar keyinga surib tashlanib, bema'ni hislar va nafsga berilish g'oliblik qilsa, unday inson nafs tuzog'iga ilinadi. Ma'naviy fazilatlardan biri — halol, pokiza yashash, birovlarining haqiga zarracha bo'lsada xiyonat qilmaslikdir. Xoja Ahmad Yassaviy ta'biricha. «nafs yo'liga kirgan kishi rasvo bo'lur, yo'ldan ozib, toyib, to'zib, gumroh bo'lur, yotsa, tursa shayton bilan hamroh bo'lur...».

Ushbu mavzu yuzasidan quyidagi xulosaga kelish mumkin. Avvalombor, olimlarimiz zimmasida mana shu ulkan meros va nodir xazina boyliklarni yosh avlodning ongu shuuriga yetkazishning zamonaviy shakl va usullarini izlab topish, ularni boqiy ma'naviy – axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va amaliyotga tatbiq etish vazifasi turibdi. Ikkinchidan, Navoiy tanlagan mavzularda, uning qahramonlarining faoliyatlarida milliy g'oyamizning asosiy tushunchalari to'la o'z aksini topgan. SHunday ekan milliy g'oyamizning asosiy tushunchalarini yoshlar ongiga singdirishda Navoiy qahramonlariga, uning asarlaridagi g'oyalarga takror-takror murojat etishga to'g'ri keladi.

II-BOB YOSH AVLODNI INSONPARVARLIK RUHIDA TARBIYASIDA ALISHER NAVOIY IJODIY MEROSIDAN FOYDALANISH.

2.1. “Xamsa” dostonida komil inson kontseptsiasining g'oyaviy asoslari.

“Xamsa”- Navoiyning shoh asardir. Unda mutafakkir va davlat arbobi, murabbiy va ishtedodli san'atkorning olam va odam haqidagi falsafiy badiiy kontseptsiasini butun qirralari bilan yorqin namoyon bo'ladi.

“Xamsa”, yaxlit olganda analitik asar bo'lib, uni murakkab kompozitsiyali mozaik pannoga qiyos qilishi mumkin. Chunki shoir xilma-xil xarakterdagi yuzlab voqea va hodisalar tasviri vositasida o'z jamiyati va tasavvuridagi olamning murakkab manzarasini yaratadi.

“Xamsa”- keng masshtabli asar. Undagi voqea-hodisalar makon va zamonda cheklanmagan. Obrazlar galereyasi uchun ham milliy va geografik chegaralanish yot.

Ideal qahramonlar bilan bog'liq tasvirlarda shartlilik mavjud bo'lib, ular o'tmish sifatida taqdim etiladi. Lekin bir qator bob va epizodlar (riyokor shayxlar, zolim shohlar, dengiz qaroqchilari va hokazolar) vaqt jihatidan bevosita zamon bilan aloqador.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.68.

Lekin shunisi xarakterliki, o'tmishning tasviri ham avtorning aktual g'oyaviy kontsepsiyasi uchun xizmat qiladi va ma'lum imo-ishoralar orqali zamon bilan bog'lanadi (Bahromshohning Navoiy orqali Husayn Boyqaroga nasihati, Iskandarning onasiga maktubi, avtorning shahzodalarga qaratilgan o'gitlari va hokozalar).

“Xamsa”da Navoiy ayrim siyosiy-ijtimoiy va falsafiy mulohazalarini ustalik bilan niqoblab o'tsa-da, asosiy g'oyaviy-badiiy kontsepsiya va novatorligini alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Ana shu niyat asarning umumiy arxitektonikasini ham belgilagan: go'yo dostonlar (syujetlilari) ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda, traditsion hamdu nahtdan tashqari avtorning g'oyaviy-estetik kontsepsiyasi ham bayon qilinadi. Ikkinchi qism esa muayyan kontsepsiyaning badiiy illyustratsiyasidan iborat. Birinchi va oxirgi dostonida esa ana shu masalada o'ziga xoslik mavjud (kontsepsiya va isbot doston ichida ham beriladi). “Xamsa”dagi ideal qahramonlarning mohiyatini yetarli baholash mumkin emas. Xarakterli misol sifatida «Sabhai sayyor»dagi Xo'ja Axiy obrazining mavjud talqinlarini ko'rsatish mumkin:

«Hikoya sevgi va sadoqatning odamgarchilik va olijanoblikning «g'alabasi bilan tugaydi»¹.

«Shoir poklik, sevgida vafodorlik masalasini shahzoda Farrux va Axiy sarguzashtlarini tasvirlovchi birinchi hikoyatda qo'yadi»².

«Shunday qilib, bitta xayrli ish o'shanday olijanoblikni yuzaga keltirdi»³.

Shuning uchun ham, “Xamsa” dostonlarining muqaddima qismlarini sinchiklab o'rganish, birinchi navbatda, har bir doston yoxud hikoyaning tub mohiyatini to'g'ri tushunishga yo'l ochsa, ikkinchi tomondan, shoir falsafiy, ijtimoiy va axloqiy qarashlarining muhim qirralarini to'g'ri belgilashga yordam beradi.

Lekin mazkur muqaddimalardagi u yoki bu masalaga daxldor qismlarni, Navoiyning boshqa asarlari bilan bog'liq holda, uning umumiy g'oyaviy pozitsiyasi kontekstida talqin qilgandagina ularning mohiyati va funktsiyasi to'g'ri baholanishi mumkin.

Umuman, Navoiyning olam va odam haqidagi badiiy kontsepsiyasi muqaddimalarda ko'proq ratsional mulohaza, asosiy qismlarda esa badiiy-emotsional shaklda namoyon bo'ladi.

“Xamsa” turkiy tildagi yozma adabiyot rivojining muayyan davriga yakun yasab, uni yangi bosqichga olib chiqqan buyuk san'atkor va mutafakkir mehnatining mahsuli bo'lmish ko'pqatlamli adabiy hodisa sifatida tarixiy poetika va, umuman, badiiy tafakkur taraqqiyoti uchun boy material beradi.

¹ O'zbek adabiyoti tarixi, 1-kitob. Toshkent, 1976, 486-bet

² O'zbek adabiyoti tarixi, II-kitob. Toshkent, 1977, 289-bet

³ Qarang: Bertels Ye.E. Navai i Djami. M., 1965 s.161

Navoiy ijodiyoti bo'yicha amalga oshirilgan turli aspektdagi (shoirning falsafiy, ijtimoiy, axloqiy va badiiy-estetik qarashlariga daxldor) muhim tadqiqotlarda "Xamsa" diqqat markazida turganligi o'rinli, albatta. Lekin mavjud ishlarning aksariyatida sotsiologik tahlil yetakchilik qiladi. "Xamsa" dostonlarining uslubi va umuman, uning poetikasi masalalari konkret tadqiq etish navoiyshunoslik oldida turgan eng aktual vazifa deb aytish mumkin.

Uslub faqat metod va oqimlar bilangina emas, balki asarda ifodalangan g'oyaviy-badiiy kontseptsiya bilan ham aloqador. Binobarin, "Xamsa" uslubining muhim qirralarini ochish asar poetikasining asosiy nuqtalarini shoirning olam va odam haqidagi badiiy kontseptsiyasi bilan uzviy aloqada tadqiq etishni taqozo etadi.

Syujet poetikasining ayrim jihatlarini "Xamsa" dostonlarini qiyosiy o'rganish jarayonida ma'lum darajada tadqiq etilgan. Lekin bu boradagi tadqiqotlar aspektini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish lozim. Bizningcha, "Xamsa" syujetlarining genezisi, "Xamsa" va folklor, konflikt va syujet, kompozitsiya masalalari yanada chuqurroq (oxirgisi deyarli o'rganilmagan) tadqiq etilishi lozim bo'lgan problemalardir.

To'g'ri, dostonlarning syujetlari ma'lum darajada qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, dostonlarning folklor bilan aloqasi masalasi ham maxsus tadqiqot obyekti bo'lgan. Lekin, birinchidan, qiyos uchun asosan, Nizomiy va Xusrav Dehlaviy "Xamsa" lari (ayrimlarida Xusrav Dehlaviy asari bilan yuzaki) ob'ekt qilib olingan.

Vaholanki, Navoiy o'zi «Muhokamatul-lug'atayn» asarida har bir dostonni yozishda qaysi muallif asaridan ko'proq ilhomlanganligini maxsus ta'kidlab o'tgan (Nizomiy, Dehlaviy, Hoju Kirmoniy, Ashraf va Jomiy). Shuning uchun ham, qiyos uchun faqat Nizomiy va Dehlaviy asarini ob'ekt qilib olish yetarli deb bo'lmaydi. "Layli va Majnun"ni – Xoju Kirmoniy "Gavharnoma"si bilan, «Sabbaiy sayyor»ni – Ashraf "Haft paykar"i bilan (topilsa, albatta), "Saddi Iskandariy"ni esa Jomiy «Xiradnoma»si bilan qiyosan o'rganish lozim. Chunki syujetning qay darajada originalligi, konflikt va kompozitsiyaning o'ziga xosligi u bevosita aloqador bo'lgan manba bilan qiyos qilingandagina yorqin ko'rinadi.

Ikkinchidan, qiyos faqat syujet chizig'idagi umumiy va xususiy momentlarni aniqlashdangina iborat bo'lib qolmasligi kerak. Har bir detalga avtorning g'oyaviy-estetik kontseptsiyasi nuqtai nazaridan konkret izohlanishi lozim.

Uchinchidan, usluban folklor namunalariga o'xshash hikoyat va rivoyatlar masalasida ham bir qator jiddiy muammolarni hal etishga to'g'ri keladi: a) Navoiygacha bo'lgan yozma adabiyotda keng qo'llanilgan, (demak, yozma adabiyot mulkiga aylangan va Navoiy shubhasiz xabardor bo'lgan), lekin "Xamsa" da ham uchraydigan folklor namunalarini qanday baholash lozim? Bunday paytda, bizningcha masalani bevosita "Shoir va folklor" tarzida emas, balki "Traditsiya va individualg' uslub" sifatida qo'yish to'g'riroq bo'ladi;

b) folklor uslubidagi har qanday hikoyat yoki rivoyatga traditsion yoki folklor mulki sifatida qarash to'g'ri bo'lmaydi. Ye.E. Bertels "Lisonut-tayr" asaridagi hikoyalar munosabati bilan to'g'ri ta'kidlab o'tganidek, ko'pgina epizodlarning (ya'ni hikoyat, rivoyat) paydo bo'lishi Navoiyning boy hayotiy tajribasi bilan bevosita aloqador¹. Shoir faqat folklor uslubidan foydalangan. Masalan, "Sabhai sayyor"dagi bir qator hikoyatlar, shuningdek, boshqa dostonlardagi bahzi tamsillarni ham Navoiy badiiy fantaziyasining mahsuli deyish mumkin.

Xullas, bir tomondan, Navoiy hikoyatlari geneziyasini ham o'rganish, ikkinchi tomondan hikoyatlarning har birini asosiy g'oyaviy-badiiy fondan ajratib olmasdan, o'zi mansub bo'lgan kontekst bilan uzviy aloqada tadqiq etish "Xamsa" poetikacining muhim jihatlaridan hisoblanadi.

"Xamsa" syujetlari keskin konfliktlar asosida qurilgan bo'lib, izchil drammatizm va dramatik situatsiyalar voqealarning shiddati va mantiqiy rivojini tahminlaydi. Olam va odam haqidagi yuksak ideal va real voqelik – ani shu ikki qarama-qarshi qutbning o'zaro munosabati – keskin ziddiyati asar konfliktining asosini tashkil etadi.

Bu konflikt turli aspektda namoyon bo'ladi: hukmdor va xalq, ijobiy va salbiy tiplar va xususan, inson vujudidagi ichki ziddiyat – ijobiy va salbiy xususiyatlarning o'zaro munosabati konfliktning muhim jihatlarini hisoblanadi.

Navoiy olam va odam muammosini alohida-alohida emas, balki uzviy bog'liq holda oladi. Ular o'rtasida ko'p jihatdan mushtaraklik topadi va odamni olamning kichik modeli sifatida talqin qiladi. Shuning uchun ham, olam va odamni o'zgartish problemasini doimo birga qo'yadi. ("Gar budur olam, kishiga mumkin ermas anda kom" misrali g'azalini eslang) va uni butun qirralari bilan chuqur tahlil etadi.

Shu jihatdan olganda, inson kontseptsiyasi "Xamsa" poetikasining barcha tomonlarini uyushtirib turuvchi markaziy problema hisoblanadi. Zotan, u yoki bu asarda qo'yilgan barcha problemalar inson va uning faoliyati vositasida hal etiladi.

Elni xor aylagan tamah bilgil,
Doimo "azza man qan'a" bilgil.²

Asarning barcha badiiy komponentlari esa undagi badiiy kontseptsianing taqozosi bilan yuzaga keladi va unga xizmat qiladi.

Binobarin, inson kontseptsiyasini nazardan soqit qilgan holda "Xamsa"dagi juda ko'p problemalar va badiiy obrazlarning tub mohiyati poetik usul va vositalarning xarakteri hamda funktsiyasini to'g'ri baholash mumkin emas. Lekin adabiyot tarixi, jumladan, Navoiy ijodida bu

¹ Bertels Ye.E. Navai i Djami. M., 1965 s. 184

² Favoyidul-kibar, Toshkent, 1960, 747-bet.

masalani tadqiq etish SHarq adabiyoti tarixi bilan bogʻliq bir qator spetsifik xususiyatlarni eʼtiborda tutishni taqozo etadi.

Sharq adabiyoti, jumladan, oʻzbek adabiyoti turli tarixiy sharoitlarda mafkuraning boshqa koʻrinishlari bilan bogʻliq holda faoliyat koʻrsatgan. Boshqacha qilib aytganda, adabiyot maʼlum diniy, falsafiy va ijtimoiy-axloqiy qarashlar ifodasi va targʻibi uchun qulay vosita boʻlib xizmat qilgan. Shu jihatdan, u yoki bu adib xususan, Navoiy singari mutafakkir sanʼatkorlarning inson kontseptsiyasini ularning falsafiy va ijtimoiy- etik kontseptsiyasidan ajratilgan holda toʻgʻri tushunish mumkin emas. Masalan, shu yoʻsinda yondashish faqat badiiy obrazlarning mohiyatiga emas, balki poetik obrazlar tabiatini ham toʻgʻri idrok etishga imkon beradi.

Bizningcha, Navoiy inson kontseptsiyasining gʻoyaviy asoslari sifatida quyidagi masalalarga eʼtibor qilish lozim:

1. Har bir ijodkorning inson mohiyati va mavqei haqidagi nuqtai nazari uning falsafiy pozitsiyasi bilan aloqador. Navoiyning falsafiy, qarashlari tahlil etilgan, lekin, bizning nazarimizda, nozik bir nuqta eʼtibordan chetda qolayotganga oʻxshaydi.

Navoiyning panteizm pozitsiyasida turganligi juda toʻgʻri va har doim taʼkidlab oʻtiladi. Lekin hamma gap shundaki, panteist boʻlgan holda, insonni (va umuman real borliqni) kamsitish ham, uning mavqeini koʻtarish ham mumkin. Hamma gap ijodkorning aniq pozitsiyasida: shoir real borliqning (majoz) inkor etadimi yoki unga haqiqat (ilohiyot)ga erishish yoʻlidagi bir bosqich yoki koʻprik sifatida qarab ulugʻlaydimi? Shuning uchun ham, masalaning nozikligini sezgan Navoiy bir necha oʻrinda oʻz pozitsiyasiga aniq ishora qilgan.

Majozdin chu haqiqatgʻa yoʻl topar oshiq,

Qilur majozni nafi, ulki behaqiqatdurur.¹

Bu yerda majoz (falsafiy maʼnoda) – real borliqni, haqiqat esa “Ilohiyot”ni anglatadi (lekin bahzi tadqiqotlarda ularning maʼnosini aksincha izohlash hollari ham uchraydi).

Falsafiy soʻz va iboralarning mazmunini tushunmaslik, ijodkorning falsafiy kontseptsiyasini aniq tasavvur etmaslik uning inson kontseptsiyasini notoʻgʻri izohlashga olib keladi. Shuningdek, Navoiydagi ishqning haqiqiy mohiyatini ham, demak, ishqiy dostonlar poetikasiga dahldor qonuniyatlarni ham faqat uning falsafiy pozitsiyasi nuqtai nazaridan izohlash mumkin.

2. Navoiyning insonga munosabati uning qaysi mazhab pozitsiyasiga yaqin turganligi bilan ham bevosita aloqador. Yaʼni u “jabar” (inson oʻz faoliyatida erkin emas, balki azalda olloh tomonidan belgilab qoʻyilgan programmani beixtiyor bajaruvchi, bamisoli robot) pozitsiyasini yoqlaydimi yoki “qadar” (inson oʻz faoliyatida erkin va mashul) tarafidami?

¹ Favoyidul-kibar. Toshkent, 1960, 726-bet.

“Xamsa”dagi ko‘pgina detallar Navoiy jabar tarafdori bilan bilvosita ya’ni ramz va ishora, mantiqiy muhokama yo‘li bilan munozara qilganligidan dalolat qiladi (masalan, «Farhod va Shirin”ning bosh tomonidagi 3- munojot-olloh bilan munozara aslida jabar tarafdorlariga qaratilgan).

3. Agar Navoiyning insonning mohiyati va mavqei haqidagi nuqtai nazari uning falsafiy pozitsiyasi bilan bog‘liq bo‘lsa, uning ideal qahramonlari bevosita ijtimoiy-axloqiy (etik) kontseptsiyasi bilan aloqador.

Navoiy ijtimoiy-axloqiy kontseptsiyasining bahzi muhim jihatlari esa Yaqin va O‘rta Sharqdagi ilg‘or ijtimoiy, axloqiy ideologiyalar, (ular shahar hunarmandlarining tashkiloti sifatida yuzaga kelib, so‘ngra ulardan ayrimlarining ideologiyasi katta xalq harakatlarining ham g‘oyaviy quroliga aylangan) ta’sirida shakllangan. Ana shulardan eng muhimlari – axiylik va javonmardlik (futuvvat). Binobarin axiylik va javonmardlik ideologiyasini bilmay turib, “Xamsa”dagi ideal qahramonlarning mohiyatini yetarli baholash mumkin emas. Xarakterli misol sifatida «Sabhay sayyor»dagi Xo‘ja Axiy obrazining mavjud talqinlarini ko‘rsatish mumkin:

«Hikoya sevgi va sadoqatning odamgarchilik va olijanoblikning «g‘alabasi bilan tugaydi»¹.

«Shoir poklik, sevgida vafodorlik masalasini shahzoda Farrux va Axiy sarguzashtlarini tasvirllovchi birinchi hikoyatda qo‘yadi»².

«Shunday qilib, bitta xayrli ish o‘shanday olijanoblikni yuzaga keltirdi»³.

Shunday savol tug‘ilishi tabiiy: birovning ko‘nglini ko‘tarish uchun o‘z sevgan xotinidan voz kechish «sevgi va sadoqat»mi? «Sevgida vafodorlik qaysi obrazga taalluqli? Hikoyatdan maqsad faqat «xayrli ish yana bir xayrli ishni keltirib chiqardi» deyishmi?

Ana shunday yuzaki talqinlar natijasida Axiy obrazi ijtimoiy-axloqiy mohiyatdan mahrum bo‘lib, hikoyaning asosiy g‘oyasi ochilmay qolgan.

Vaholanki, mazkur obraz muayyan regionda (asosiy markazi Kichik Osiyo) shahar mehnatkashlarining uyushgan tashkilotlari sifatida faoliyat ko‘rsatgan ijtimoiy-axloqiy oqimning axloq kodeksini targ‘ib etishga qaratilgan.

Navoiy ijodida, xususan, uning ijobiy qahramonlari qiyofasida chuqur iz qoldagina ilg‘or qarashlardan yana biri – shahar hunarmandlarining uyushgan tashkiloti tarzida shakllanib, o‘zining maxsus axloq kodeksiga ega bo‘lgan javonmardlik ideologiyasidir. Bu ideologiyaning evolyutsiyasi uzoq va murakkab bo‘lganidek, uning mohiyati ham turli oqimlar (axiylik malomatiya, so‘fizmnining bahzi tarmoqlari, musulmon etikasi) bilan bog‘liq holda yondashishni

¹ O‘zbek adabiyoti tarixi, 1-kitob. Toshkent, 1976, 486-bet

² O‘zbek adabiyoti tarixi, II-kitob. Toshkent, 1977, 289-bet

³ Qarang: Bertels Ye.E. Navai i Djami. M., 1965 s.161

taqozo etadi. Masalan, javonmardlik etikasining eng markaziy masalalaridan bo‘lmish qanoat va tamahning kelib chiqishi “azza man qanah zala man tamah” (qanoatli aziz, tamahgir xor) degan hikmat bilan bog‘liq bo‘lib, musulmon sharqi etikasida ham muhim o‘rin tutadi.

Navoiy o‘nlab baytlarda (ham lirikada, ham boshqa asarlarida) ana shu hikmatni turli shakllarda (aynan, qisman shaklini o‘zgartirib, ma’nosini tarjima qilib) keltirgan:

Elni xor aylagan tamah bilgil,
Doimo “azza man qan’a” bilgil.¹

Navoiy «Mahbubul-qulub» da «qanoat zikrida», «saxovat va himmat» bobida, “karam va futuvvat tariqida” alohida – alohida so‘z yuritadi. Qanoat futuvvatning ko‘plab talablari (Attorda ular 72 ta) orasidagi eng markaziyliklaridan, lekin u barcha toifa (xoh malomatiy, xoh axiy, xoh so‘fiy, xoh shoh, xoh gado bo‘lsin) uchun eng zaruriy xususiyat hisoblanadi.

“Xamsa”da javonmardlik etikasining juda ko‘p qirrali turli shakllarda tasvir va targ‘ib qilinadi.

Javonmardlik elementlarini faqat “futuvvat” va “javonmard” terminlari bor o‘rinlardan qidirish to‘g‘ri emas (ba’zan mazkur so‘zlar termin emas, balki oddiy sifat ma’nosida kelgan).

“Xamsa”da javonmardlikning har bir tabaqa (oddiy inson, hukmdor, olim, oshiq, lashkarboshi, pahlavon) uchun taalluqli sifatleri ana shu tipdagi obrazlarga singdirib yuborilgan.

Ikkinchi tomondan, shoirning juda ko‘p mulohaza va ibratli xulosalarida ham futuvvatning u yoki bu talabini ko‘rish mumkin. Juda ko‘p tilga olingan «himmat», «vafo», poklik ana shunday muhim sifatlardan hisoblanadi. Masalan, qo‘l, dil va nazar pokligini shoir bir yerda oshiqning («oshiq oni bilki, erur dardnok, ham dili, ham ko‘ngliyu ham ko‘zi pok») asosiy talabi sifatida qo‘ysa, boshqa o‘rinda shohlikning zaruratlaridan biri sifatida keltiradi. Lekin “Xamsa” voqealarni yo‘naltiruvchi konflikt faqat qaharamonlararo (ijobiy va salbiy) ziddiyat sifatida ko‘rinsa-da, ammo boshqa bir ziddiyat ham borki, uning roli ham voqealar rivojida kam emas. Bu – insonning o‘zi ichki ziddiyati. Navoiyning qayta-qayta ta’kidlashicha, inson vujudida hayvoniy (genetik) va insoniy (notiqiy) xususiyatlar mavjud bo‘lib, ular o‘rtasida doimo kurash boradi. Inson faoliyatidagi qarma-qarshi holatlarning manbai ana shunda. Chunki «ikkisi insonda bo‘lib haddi tom, zumrai inson aro aylar xirom».

Inson vujudida mavjud eng dahshatli dushman – bu nafs. Uni yengish esa osonlikcha bo‘lmaydi. Shuning uchun ham, to‘qaydagi sherni yengish shijoat emas, balki “naf itin qilsang zabun, olamda yo‘q sendek shujoh”.

Shuning uchun ham podsho bazmidagi “qariyu gar xud yigit”:

¹ Favoyidul-kibar, 747-bet.

Shaynda qoplondin agarchi fuzun,
Nafs itining ilgida lekin zabun.¹

“Xamsa” obrazlarida Navoiyning ana shu kontsepsiyasi nuqtai nazaridan yondashsak, ularning poetikasida butun murakkabliklari bilan yorqin namoyon bo‘ladi.

Xullas, “Xamsa” obrazlari poetikasini shoirning falsafiy-ijtimoiy va axloqiy pozitsiyasi bilan uzviy bog‘liq holdagina chuqur tadqiq etish mumkin. Chunki muallif pozitsiyasi butun asar davomida saqlanib, uning badiiy imkoniyatlarini o‘ziga bo‘ysundiradi hamda asar uslubining shakllanishi va umuman poetik komponentlarining muvozanatida muhim rol o‘ynaydi. Zotan, asarning umumiy ritmi, badiiy tasvir tamoyillari uning pafosi bilan bevosita bog‘liq. Asar qahramonlariga xos mehnatsevarlik, bunyodkorlik, do‘stlik, tinchliksevarlik, insonparvarlik kabi fazilatlaridan ta’lim-tarbiya tizimida keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2.2. «Saddi Iskandariy» dostonida yoshlar tarbiyasi masalasi.

Muhtaram Prezidentimiz o‘zining «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» mavzusida so‘zlagan nutqida mumtoz ta’lim an‘analari (farzandga yaxshi nom qo‘yish, uni yaxshi muallim qo‘liga topshirish, savodini chiqarish, ilmi, kasb-hunarli, uy-joyli qilish kabilar)ni qaytadan mustahkam qaror toptirish va rivojlantirish uchun istiqloq juda qulay muhit yuzaga keltirganini, binobarin, tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni belgilaydigan hal qiluvchi muammoga aylanayotganini, uni paysalga solmaslik lozimligini alohida ta’kidlaydi. Mavzuga doir fikrlarini davom ettirib Yurtboshimiz shunday yozadi: «Milliy tiklanish mafkurasiga va umumbashariy qadriyatlarni o‘rganishga asoslanishi lozim bo‘lgan ta’lim-tarbiya, uning yangicha mazmuni to‘g‘risida besh yildan beri gapiramiz. Biroq ko‘pgina o‘quv yurtlarida, ayniqsa, ijtimoiy, jamiyatshunoslikka oid fanlar bo‘yicha hamon eski o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanib kelinmoqda. Bunday ahvolni mustaqil mamlakatimiz bolalariga, yosh avlodga qarshi jinoyat deb baholash kerak»².

To‘g‘ri, kuyinchaklik va otalarcha g‘amxo‘rlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan aytgan bu so‘zlardan keyin o‘quv dasturlari va darsliklar yaratildi. Ammo hozirgacha, ta’lim tizimlarida nimani qachon va qanday o‘qitish kerakligi asoslab berilmagani ham ayni haqiqatdir. Bu haqda Prezidentimiz shunday degan edi: «...barcha amaldagi o‘zgarishlar va tadbirlar asosan yuzaki bo‘lib, ta’lim-tarbiya va o‘quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy

¹ Xamsa. Toshkent, 1960, 60-bet.

² Barkamol avlod orzusi. T.: “O‘zbekiston” 1999, 9-b.

bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarini yechib bergan emas»¹.

Aytildanlaran fanlar bo'yicha ta'lim mazmunini yangilash, bolalarga qachon, nimani va qanday o'qitish masalasini hal qilish, buning uchun o'quv rejalarini tubdan isloh etish, darsliklar chuqur singib ketgan akademizmni amaliy ko'nikmalar sari yo'naltirish maqsadga muvofiq. Buning jahonda sinalgan usuli esa, bizningcha, til va adabiyot fanlarini qo'shib o'qitish (8-9-sinflardan boshlab), ya'ni tahliliy o'qishdir.

Prezidentimizning ta'lim-tarbiyaga doir barcha mahruza va chiqishlarida tarbiyaning ong mahsuli, ayni paytda ong darajasi va rivojini belgilaydigan omil ekanligi, binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmasligi, ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa ko'zlangan oliy maqsad – ozod va obod jamiyat barpo etish imkoni yo'qligi yuksak salohiyat bilan jaranglab turadi. Bunga uning quyidagi so'zlaridan ham qanoat hosil qilish mumkin: «Men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir» degan fikrini ko'p mushohada qilaman.

Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir»².

Ta'lim, tarbiya, ilm tushunchalari shu darajada qorishib ketganki, ularning birini ikkinchisiz tasavvur qilish qiyin. Shunga qaramasdan, tabiat va jamiyat hodisalarida bo'lgani kabi ular orasida ham pog'onali(ierarxim) munosabat mavjud. Binobarin, ularni ham muayyan tartibda joylashtirish mumkin: tarbiya → ta'lim→ilm.

Zero, ona yurtga cheksiz muhabbat va sadoqat, ruh va tan quvvatidan bahra olib yashash maqsadida tarbiyalangan barkamol avlodgina muqaddas zaminimizni gullab-yashnatishga, uni yot ta'sir va kuchlardan asrashga qodirdir. Benazir inson, ma'naviyat va ma'rifatning buyuk targ'ibotchisi hazrat Alisher Navoiy butun hayoti va ijodini komil inson tarbiyasiga, millat taraqqiyotiga bag'ishladi, minnatdor avlodlarning yuksak e'tirofi va chuqur ehtiromiga sazavor bo'ldi. .

Buni biz Yurtboshimizning daho shoirga bergan tahrifida ham, uning quyidagi so'zlarida ham ko'rishimiz mumkin: «Navoiy kunda kerak, har birimizga kerak, uning har bir asari, har bir g'azali, har bir so'zini El manfaatiga yetkazaylik». Bu so'zlar ulug' shoirni ommaviy tarzda o'qish va o'rganishga mangu dahvatdir. O'rni kelganda, shu dahvatga munosib javob sifatida «Alisher Navoiy hayoti va ijodi»ni alohida fan sifatida barcha fakul'tetlarda o'qitayotgan

¹ Barkamol avlod orzusi. T.: "O'zbekiston" 1999, 12-b.

² Barkamol avlod orzusi. T.: "O'zbekiston"- 1999. 16-b

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat universiteti rektoratiga, professor-o'qituvchilari va talabalariga o'z minnatdorchiligimizni izhor etamiz. Chunki Alisher Navoiyning isonafas so'zini omma manfaatiga yetkazishning samarali usullaridan biri – barcha oliy o'quv yurtlarida shunday fanni o'qitishni yo'lga qo'yishdir. «Navoiyni keng xalq ommasi bilan tanishtirishda «Saddi Iskandariy» tili va uslubini o'rganish juda ko'p narsa beradi. Bunday tahlil uning ijodini o'rganishga o'ziga xos kirish vazifasini o'taydi».

Alisher Navoiy insoniyatni butunlikka chorlab yashadi, umrini el-yurt ravnaqi, millat manfaatiga, tilimizning betakror ifoda salohiyatiga ega ekanligini amalda isbotlab berishga bag'ishladi. Buning misli ko'rilmagan namunasi daho shoir qalamiga mansub «Saddi Iskandariy» dostonidir.

Mazkur dostonni Hisrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviy va Abdurahmon Jomiy dostonlari bilan qiyoslab o'rgangan Ye.E.Bertels Alisher Navoiy Iskandarining darvesh ham, zohid ham emasligini, balki mehribon, kuyunchak, rahmdil, ezgulikka intiluvchan, shu maqsadga eltuvchi ilmni yuksak qadrlaydigan, har qanday zo'ravonlik va zolimlikning muhosasiz dushmani ekanligini alohida ta'kidlaydi. Olimning fikricha, Alisher Navoiyni keng xalq ommasi bilan tanishtirishda «Saddi Iskandariy» tili va uslubini o'rganish juda ko'p narsa beradi, yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq dolzarb vazifalarni hal qilishga qo'l keladi. «...aynan shu doston o'zining qator xususiyatlari tufayli Navoiy ijodi bilan ilk marta tanishayotgan o'quvchilar uchun, ayniqsa, foydali. Agar hozir qo'limizda dostonning jiddiy sharhlangan asl nusxasi bo'lganda, men ulug' o'zbek shoirini o'rganishni aynan shu asardan boshlashni tavsiya qilgan bo'lardim. Uning zamirida shoirning qolgan barcha asarlari mutlaqo boshqa nur bilan yongan, ularning sahifalari bo'ylab sochilgan, ammo tarixiy negizdan yulqib olinganda hamisha ham idrok etilavermaydigan qimmatbaho toshlar yangi shukuh bilan namoyon bo'lgan bo'lardi».

Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonida foniy dunyodan voz kechish, uning besamar va bevafo ekanligini fosh qilish g'oyasi yo'q. U mutlaqo hayotiy, quvnoq ruhda yozilgan bebaho asardir. Bunga ishonch hosil qilish uchun, Ye.E.Bertels g'oyat o'rinli ta'kidlaganidek, uning ohangiga, musiqiy sadosiga quloq tutish kerak. Nizomiy Ganjaviy motamsaro tasvirlagan Iskandar vafoti bu yerda kishini ezadigan darajada tasavvur uyg'otmaydi. Chunki o'lim kuz yaprog'ining to'kilishi kabi tabiiydir.

Xullas, ildizi iymonga tutash tarbiya masalasi mumtoz adabiyotimizda juda oydin yoritib berilgan. Gap faqat uni o'qishda, targ'ib va tashviq qilishdadir. Ta'lim-tarbiya tizimida gap bu haqda borganida asarning quyidagi g'oyalariga keng e'tibor qaratish zarur. Avvalombor, mamlakat ozodligi va uning tinchligi masalasi. Vatanni tashqi dushmanlardan himoya qilishdagi jonbozlik namunalaridan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbilashda keng foydalanish lozim. Ikkinchidan, mamlakatda islohotlarni amalga oshirishda hamkorlik masalalariga to'xtalib o'tish

zarur. Negaki vatanimizda boshlangan keng qamrovli islohotlarning yechimi mamlakatimizda yashayotgan barcha millat vakillarining hamkorligiga, boshlangan ezgu ishlarning faol ishtirokchilariga bo'lishlariga bolg'liq. Uchinchidan, asardagi asosiy g'oyalardan biri fuqarolarni mavjud tizimga hurmat ruhida tarbiyalash masalasi hisoblanadi. Ayniqsa ayrim kuchlar tomonidan bugungi kunda vatansizlik g'oyasi targ'ib qilinayotgan bir paytda yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'rni kelganda shu narsani alohida urg'ulash joizki, oliy o'quv yurtlari tegishli fakul'tetlarida hozirgidek nuqul g'arb adabiyotini emas, balki sharq va, eng avvalo, o'zbek mumtoz adabiyotini chuqur o'rganmog'imiz lozim.

2.3. «Farhod va Shirin» dostonida komil inson timsoli va uning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati.

«Farhod va Shirin» Alisher Navoiyning mashhur asarlaridan, uni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-tahliliy ishlar ham ancha. Ammo shunga qaramay, bizning nazarimizda, dostonning g'oyaviy mohiyati, ulug' shoir ko'zlagan maqsad-muddao hali ochilgan emas. Darhaqiqat, nega Farhod boshqalarga o'xshagan emas, tug'ilganidan boshlab g'amgin, bezovta? Sehrli ko'zgu, Yunoniston safaridagi tilsimotlar, dev, ajdarho nimaning ramzi, bu yerlarda tog'larda istiqomat qiluvchi donishmandlar-chi, ular kimlar? Nega Navoiy voqealarni to'g'ridan-to'g'ri Shirin bilan uchrashishdan boshlamagan, asarning teng yarmi afsonaviy sarguzashtlar tasviriga bag'ishlangan? Bu va bunga o'xshagan savollarga, afsuski, mavjud tadqiqotlarda javob yo'q. Holbuki, Navoiy oddiy ertakchi shoir emas, uning har bir ifoda-obrazi, lavha va tavsillarida muayyan umumfalsafiy, kayhoniy-ilohiy ma'no bor. Buni u asarning muqaddimasidayoq qayd etib o'tadi:

Bu rangin sahfa, bilkim, dard bog'i,

Ayon har lolasida ishq dog'i.

ya'ni maqsad ishq dardini kuylash. Biroq bu oddiy, zaminiy ishq emas, balki ilohiy ishq, Farhod esa ana shu ilohiy ishqqa muftalo soliqdir. Go'dakning vujudi «shuhlai dard» bilan yo'g'rilgan, tili chiqqan zahoti ishq va oshiqlik so'zini aytar, hazin va xastadil bo'lib o'sar, jismonan baquvvat bo'lsa-da, lekin olamga beparvo, g'alati edi. «Farhod» so'zining asl ma'nosi nurli siymo, baxti o'ziga yo'lboshchi demak. Ammo Navoiy bu nomning arab yozuvidagi harflariga ramziy tus berib, u firoq, rashk, hajr, oh va darddan iborat deb aytadi. Chunki ilohiy ishq yuragiga olov solgan odamning nasibasi hijron qiynoqlari; u o'zi bilan iloh orasida to'siq bo'lib turgan dunyo va jismdan qutulish iztiroblarini chekishi shart. Taqdiri azal bu bolaning peshonasiga shuni bitgan va u bundan qochib qutulolmaydi. Shuning uchun uning horiqulodda xislatlari kishilarni hayratga soladi. Farhoddagi rahmdillik, shohu gadoga barobar muomalada

bo'lib, «el ozoridan ozor topishi», otasi taklif etgan taxt-tojdan voz kechishi ham uning darveshtabiatligi, qalban mol-dunyoga qiziqmaganidandir. Atrofdagilar esa Farhodning bu ahvolini tushunmaydilar. Xoqon o'g'lining hazin kayfiyatini ko'tarish maqsadida har xil tadbirdar qo'llaydi (tomoshalar uyushtiradi, to'rtta qasr qurdiradi, tabiblarga ko'rsatadi va hokazo). Bu orqali Navoiy ilohiy ishq dardida yongan odam bilan ushbu saodatdan benasib «foniy dunyo» kishilari orasidagi ruhiy – ma'naviy tafovutni ko'rsatib bergan. Ammo shunisi ajibki, Farhodning o'zi ham boshida «ichiyu toshi asiri dard» bo'lishiga qaramay, nimaga bundayligini anglab yetmaydi. Faqat shuni biladiki, ixtiyori o'zida emas, allaqanday olov yonib-yondirib o'ziga chorlaydi, ko'ngli hamisha nimagadir mushtoq. Bu holning-da tasavvufiy talqini bor: Farhod dardining boisi nima ekanini bilishi, ya'ni o'zligini anglashi uchun suluk yo'liga kirib, ma'rifat manzillarini (maqomotni) bosib o'tishi lozim. Uning zo'r qobiliyat bilan egallagan bilimlari, jumladan, Qoran va Moniydan o'rgangan hunarlari ham, zohiriy (dunyoviy) bilimlar bo'lib, ular tilsimotlar, ya'ni ilohiy siru asrorni ochishga kifoya qilmaydi. Irfoniy-botiniy bilimlarni egallab, ilmulyaqin darajasidan haqqulyaqin darajasiga ko'tarilish, ko'ngil oinasida g'ayb jamolini aks ettira olish uchun esa u piri komil ta'limini olish kerak edi. Farhodning xazinadagi ko'zguni billur sandiq ichidan ololmay (chunki u tilsimlangan) Yunoniston safariga, Suqrot huzuriga o'tlanishiga zarurat shundan kelib chiqadi.

Yunoniston – hikmat mamlakati, zotan, sandiqdagi «hikmat jahoni» ko'zgu ham Iskandardan qolgan, uni Yunon donishmandlari yasaganlar. Hakimlar tog'larda, g'orda yashaydilar. Farhod va u bilan birga borgan odamlar avval Suhaylo ismli hakim bilan uchrashadilar. Suhaylo – Farhodning tariqat yo'lidagi birinchi piri, u Suqrot darajasida komil emas, oina sehrini ochishga qurbi yetmaydi. Ammo u Farhodga Suqrot huzuriga borish yo'lini ko'rsata oladi. Kezi kelganda shuni aytish kerakki, tariqatda bir necha pirning ta'limini olish rasm edi, shayxlar o'z darajalariga qarab, shuningdek, muridning istehdodini hisobga olib, uni o'zlaridan kuchliroq pirlarga taqdim etganlar, natijada shogirdning irfoniy qobiliyati pirdan pirga o'tgani sari ochilib boravergan. Suhaylo ham «donoyi ogoh», ko'ngli bedor odam, u Farhod yengib o'tishi kerak bo'lgan to'siqlar – ajdarho va devdan xabar beradi. Ajdarho – nafs timsoli, dev – saltanat timsoli (hokimlik). Suhaylo Farhodga ajdarhoni yengish uchun samandar yog'ini tuhfa etadi. «Otashgohlarda yurib yiqqanman bu yog'ni», deydi u. Chunki samandar olov ichida yashaydigan jonivor. U – ishq ramzi. Farhod badaniga samandar yog'ini surtganda, ajdarhoning o'ti unga kor qilmaydi – ishq otashi nafs o'tini so'ndiradi, demoqchi buyuk mutafakkir Navoiy. O'shal ishq ilohiy olovikim, Farhodni mard va qahramon qildi, ne-ne balo-ofatlarni yengishga qudrat berdi. Farhod Suhaylo so'ziga amal qilib dahshatli devni o'ldirgach, uning bo'ynidagi kumush lavhani olib, uning yordamida Jamshid jomini qo'lga kiritadi. Jom gardishida Suqrot huzuriga boradigan yo'lni ko'rsatuvchi yozuv bor. Jomi Jamshidni qo'lga

kiritishi Farhodning suluk tadrijida muayyan martabaga erishganidan nishona edi. Chunki bu jomda «jahon holoti ravshan» ko‘rinadi, uning tashqarisida «komil zamiri» bo‘lsa, ichi «andoqqi sohibdil zamiri». Demak, Farhodning irfoniylilimi oshdi, zamiri ravshanlashdi, ruhiyl olami boyidi. Ammo ko‘zgu sehrini ochishga bu hali yetarli emas. Shuning uchun u Suqrot tomon intiladi, lekin bu yo‘lda yana qanchadan-qancha mushkilliklarni yengishi lozim. Vodiy bilan Suqrot turadigan tog‘ oralig‘ida ko‘pdan-ko‘p tilsimotlar bor, yo‘l bag‘oyat og‘ir, ilon-chayonlarga to‘la, o‘r-qirlardan o‘tish kerak. Tor so‘qmoqning ikki tomoni qirrali harsang toshlar, pastda vahimali daryo oqadi. Farhod shu yo‘ldan hech qayoqqa qaramay, «tuz yurib», o‘n bir ming qadam bosishi kerak, ozgina chalg‘isa, halokatga uchraydi. Bu – solik Farhodning ruhiyatida yuz berayotgan o‘zgarishlar; uning irodasi, sidqu vafosining sinovlari. Solik butun diqqati, qalb torlarini iloh yo‘liga qaratsagina, muvaffaqiyatga erishadi. Farhodga tilsimotlarni yechib, mazkur yo‘lni bosib o‘tishda Xizr rahnamolik qiladi. «Kelubdurmen sango bo‘lmoqqa hodiyl», deydi u yigitga qarab. Xizrni Farhodning ikkinchi piri deb qabul qilish mumkin, ammo aslida u ulug‘ maqsad sari tavajjuh etgan Farhodga g‘aybdan kelgan madaddir. Farhod Xizr maslahatiga kirib, jomga qaraydi va unda Suqrot maskan tutgan tog‘ni hamda g‘orni ko‘radi. Shayx qancha ulug‘ bo‘lsa, u maskan tutgan tog‘ ham shuncha baland va mahobatli, unga yetishish azobi ham og‘ir. G‘orga borar yo‘lda Farhodga sher va «temir paykar» odam – robot duch keladi. Sher – g‘azab timsoli, g‘azabkorlik esa hokimlar, podsholarga xos. Darveshda g‘azab bo‘lmasligi kerak. Shuning uchun Farhod she‘rning og‘ziga Ahriman devdan olgani Sulaymon xotami (bu ham hokimiyat ramzi) bilan urib, uni daf etadi. Keyin temir paykarni yengish navbati keladi. Uning ko‘ksida ko‘zgu bor, shu ko‘zguni yuz qadam masofadan nishonga olib urish kerak, agar o‘q ko‘zgugu tegmasa, temir odam o‘q otuvchining o‘zini halok etadi, agar nishonga tegizilsa, u yonib yo‘q bo‘ladi. Temir paykar – ro‘yo, yolg‘on timsoli, ayni vaqtda dunyo mo‘hijzalari ramzi, chunki dunyoning o‘zi ham majoz – yolg‘on deb hisoblangan. Dunyo mo‘hijzalariga mahliyo bo‘lgan odam ilohga, haqqa yetolmaydi, chalg‘iydi. Farhod temir paykar ko‘ksini nishonga olib, o‘q otadi va ko‘zgu sinib, haligi maxluq yonib nobud bo‘ladi. SHunday qilib, Farhod Suqrot dargohiga musharraf bo‘lishdan oldin anoniyat belgilari – nafs, davlat va boylik hirsil, g‘azab, ro‘yo – yolg‘on qutqularini bartaraf etdi, uning ko‘ngil ko‘zgusi dunyo ishqil g‘uboridan toza bo‘ldi. Shu bilan birga, Farhodning ilmi g‘aybdan xabardorligi, o‘z-o‘zini anglash jarayoni boshlandi, pardalar birin-ketin oradan ko‘tarilmoqda edi.

Xiyla mashaqqat bilan g‘orni topgandan keyin Alisher Navoiyl quyidagi baytni keltiradi:

Topib ko‘p fikr ila g‘or og‘zig‘a yo‘l,

Kishi topqon kibi yor og‘zig‘a yo‘l.

Bu o‘rinda g‘or og‘zining yor og‘ziga o‘xshatilgani diqqatni tortadi. Ichi zimziyo bo‘lgan g‘or har qanday odamda vahima, qo‘rquv hissini uyg‘otishi tabiiyl, biroq Farhod uchun bu g‘or

vahimali emas, balki yor og‘zini topgan kabi farahli. Albatta, yor deb Navoiy Suqrotni nazarda tutayotir, u solik Farhod uchun haqiqatdan ham aziz do‘st – yor.

Qorong‘i g‘orga «jahonbin jomni» mashhal qilib kirib boradilar. Jom Farhodning musaffo qalbi ramzi ekanini aytgan edik, ya‘ni Suhaylo va Xizr ta‘limi madadlari tufayli ravshanlashgan solik qalbi mashhalday yo‘lni yoritib, piri komil sari yetaklaydi. Bir qancha zinalardan ko‘tarilgandan so‘ng salobatli bino ko‘rinadi, uning ayvoniga chiqilgach, to‘rdagi xona ichidan bir dasta nur ko‘zga tashlanadi. Bu xona ichida go‘yo maxfiy siru asror olami bo‘lib Suqrot o‘tiradi, nur – uning chehrasining ziyosi. Suqrot mehmonlar kelishidan ogoh, shuning uchun ularni ichkariga chorlaydi. Shu yerda Navoiy voqeaning borishini to‘xtatib, Suqrot hakim tahrifiga o‘tadi.

Suqrot, shoirning tavsifi bo‘yicha, quyosh kibi porloq siymo, jismi pok ruhdan iboratday, shaxsi aqlning haykali bo‘lib ko‘zga tashlanadi. U barcha zohiriy va botiniy ilmlarning jamuljami; hamda axloqiy xislati, tamkini va zakovati hayratlanarli. Jismi toza jon kabi mukarram va safoli. Olami kubro, ya‘ni Ilohiyot olamini mujassam etgan zot:

Kelib ko‘ngli aningdek bahri zohir,
Ki anda zohir avval to ba oxir.
Yuzi mirhoti anvori ilohiy,
Ilohiy sirrini anglab kamohiy¹.

Xullas, Suqrot – kamolot cho‘qqisini egallagan komil inson, o‘zi bir joyda o‘tirsam ham, lekin ruhi butun dunyoni kezib chiqadi. Jamshid jomi, Iskandar ko‘zgusi uning ko‘ngil ko‘zgusi oldida xira. Ko‘ngli «mahzani roz» bo‘lgani sababli hamma narsadan ogoh, barcha voqeadan xabardor. Kimning peshonasida nima yozilgan, umri qanday tugaydi, muddao-maqسادi nima – suqrot buni oldindan biladi. Shuning uchun u nafaqat xoqon xazinasidagi sandiqni ochish sirini, balki Farhodning kelajagini ham bashorat etadi. Biroq Suqrot avval xaqon bilan uning vaziri Mulkoroni qabul qiladi. Farhodga hamroh bo‘lib, mashaqqat chekkanlari evaziga ularga uzoq umr va beqiyos boylik vahda etadi, bardamlilikni tahminlab turadigan «muhra» beradi. Ajdarho va dev jangida Farhod qo‘lga kiritgan ganj bilan Sulaymon uzugi (xotam), Jamshid jomini ham hoqonga qaytaradi. Chunki bular Farhodga kerak emas edi. Xoqon va Mulkoro – dunyo odamlari, shu bois ularning talabi, xursandchiligi ham dunyoviy, ya‘ni boylik, yeru mulk va hokimiyat. Suqrot xoqon va vazirni rozi qilib, chiqarib yuboradi-da, so‘ng yoniga Farhodni chorlab, uni o‘z farzandiday ehzoalaydi. Chunki bu yigit siymosida u e‘tiqodi, sulukining davomini ko‘rgan edi. Navoiy tasviriga ko‘ra, Suqrot Farhodni necha yuz yillardan beri kutadi. «Hakimi jahonbin» Farhodga qarab deydi:

¹ Qamohiy - oxirigacha

Muni bilkim, jahon foniydur asru,

Haqiqat ahli zindoniydur asru.

Ushbu baytda Navoiy Suqrot tilidan tasavvufning ikki muhim g'oyasini bayon etgan. Birinchi g'oya – dunyo o'tkinchi, shu sabab unga ko'ngil bog'lash xato. Ming yil yashab, yer yuzini olsang ham oqibat bir kun o'lasan. Xoqon umri uzayganiga xursand, lekin u, axir, abadiy emas. Faqat Mutlaq iloh abadiy, uning ishqida yongan oshiq ham abadiylik baxtini topadi:

Chu mahbubi haqiqiy uldurur, ul,

Aning vasli sari qath aylamak yo'l.

Gar ul mahbub vasli bo'ldi ummed,

Budur iqboli sarmad, baxti jovid.

Insonning yashashdan maqsadi «haq amrig'a mahmur bo'lmoq», bundan o'zga ishlardan esa o'zini saqlashdir. Biroq haq va haqiqatni sevish, ilohiy ma'rifat jomini nush etmak oson emas. «Bu yo'l ichra behad dardu g'am bor», deb aytadi Suqrot. Negaki, haq oshig'i uchun tanavujud va dunyoning o'zi bamisoli bir zindon. O'zlikdan qutulmay haq jamoliga yetish, baqoga musharraf bo'lish mumkin emas:

Biri – o'zlikni qilmoq bo'ldi foni,

Yana bir – dog'i topmoq bo'ldi oni.

Bu bayt so'z o'yini asosiga qurilgan. Suqrot (Navoiy) fikriga ko'ra, haqqa yetishish yo'li ikki qadam masofadek gap, lekin bu ikki qadamni bosib o'tish uchun ming yillik mashaqqat sarflanishi kerak, zero, bu ikki qadamning biri – o'zlikdan voz kechish, ikkinchisi – o'zlikni topish, ya'ni o'zlikdan voz kechmay turib, o'zlikni topolmaysan. Navoiy talqinidagi ikkinchi tasavvufiy g'oya ana shu.

Shu tariqa Suqrot Farhodga dunyoning tuzilishi, odamizod xilqati va vazifasi, vahdat asrori, fano va baqo, ishq haqiqiy va ishq majoziy xususida gapirib beradi; oshiq yigitning «sarnavishti» - taqdirini, boshiga tushadigan mushkilliklari topajak saodatini sharhlab beradi. Ishqning ikki turi haqida Navoiyning «Hayrat ul - abror», «Layli va Majnun», «Mahbub ul-qulub» va «Lison ut-tayr» asarlarida ham fikrlar aytilgan. SHoir har gal majoziy va haqiqiy ishqni solishtirar ekan, o'quvchiga tushunarli va ta'sirli bo'lishi uchun yangi-yangi qiyoslarni misolga oladi. Masalan, «Hayrat ul-abror»da majoziy ishqni yer qahridagi toshlarni lahlu olmosga aylantiruvchi haroratga, «Layli va Majnun»da esa «kimyo», ya'ni misni oltinga mubaddal etuvchi sehrli fanga o'xshatadi. («kimyo»lanish ham olov ta'sirida yuz beradi). «Farhod va Shirin» dostonida esa majoziy ishq tong yorug'i haqiqiy ishq, quyoshning o'ziga qiyos etilgan. Suqrot buning ma'nosini tushuntirib, majoziy ishqni solik vujuduni fano etuvchi, ilohiy vahdatga olib boruvchi kuch deb tahriflaydi. Modomiki, inson o'zlikdan qutilmay, ilohga yetolmas ekan, demak, ana shu jarayonni tezlashtiruvchi chora, vosita kerak:

Bu o‘zlukdin qutulmoq chorasoz,
Nima yo‘q, o‘ylakim ishq majoziy...
Majoziy ishq bo‘ldi subhi anvar,
Haqiqiy ishq anga xurshidi xovar.

Majoziy ishq jarayonida oshiq obdon sinovdan o‘tadi, uning tani bir quruq xasday bo‘lib qoladi va haqiqiy ishq «barqi choqilg‘och», zumda yonib kulga aylanadi, ya’ni oshiq ruhi qutilib, abadiyat – vahdoniyatga erishadi.

Farhod ana shu jarayonni bosib o‘tishi, ishq majoziy o‘tida o‘rtanmag‘i darkor, deb xabar beradi Suqrot. Ammo ishq majoziy «mazhar»siz sodir bo‘lmaydi. «Mazhar» siymosida ilohiy jamol aks etgan kishi. Oshiq uni ko‘rib, shaydo bo‘ladi, o‘zini borlig‘ini unutib unga intiladi. Layli Majnun uchun, tarso qizi Shayx Sanhon uchun, amirning o‘g‘li Shayx Iroqiy uchun, mug‘anniy ayol Shayx Ruzbehon uchun «mazhar» edi. Farhodning mahjoziy ishq uchun “mazhar” (mazhar – zuhrlanish, inhikos demak) Shirindir. Mazhar Vujudi mutloqning sifatlari va beintihos Husnining qudratini namoyish etadi, u mirhot oraz, ilohiy fayz ayonlashgan obhekt («shayh»). Husn va ishq tortilishi (Navoiy buni «kashish» deydi), o‘zaro mojarolari ushbu dostonda Farhod va SHirin timsolida davom etgan.

Farhod shunday qilib Suqrot huzuriga borar yo‘lda ma’rifatning bir qismi – maqomat manzillarini bosib o‘tdi, piri murshid – komil inson suhbatidan bahra topib, o‘z dardi nima ekanini bildi; ishq, suluk mohiyatini angladi – o‘zligini va ilohiyotning seheru sinoatini taniy boshladi. Suqrot unga otasi xazinasidagi ko‘zgu sirini ham aytib beradi. Farhod ko‘zguda nafaqat Shirinni balki o‘zini va o‘zi boshdan kechirishi lozim bo‘lgan voqealarni ko‘radi. Chunki ko‘zgu bu yerda o‘sha komil inson Suqrotning qalbi.

Farhod endi chinakam majnun oshiqqa aylanadi, savdoyi kishiga o‘xshab qoladi. Umuman, Farhodning Majnunga o‘xshash jihatlari juda ko‘p. Ikkalasi ham oshiqi beqaror, dardmand va xastadil. Farhod kabi Majnun ham go‘dakligidan g‘alati xislatlari ayon edi. Taqdir bu ikki yigitga ishq olovida o‘rtanishni nasib etgan. Ularning mahbuba qoshida xushdan ketishlari, oyoqlariga zanjir solinishi, ishqsiz ulusdan malomatlar chekishlari va boshqa voqealar o‘xshash. Navoiy bir mavzu – majzub solikning majoziy ishqini ikki xil sharoit va adabiy material ta’sirida gavdalantirgan. Majnun bilimli, shoir yigit, lekin u juda ojiz, hariflariga, muhitga biroz bo‘lsa-da, qarshilik ko‘rsatishdan mahrum. Farhod esa ishq bilan javonmardlikni uyg‘unlashtirgani uchun hunari va jismoniy qobiliyatini ishga sola oladi qahramonliklar ko‘rsatadi. Xullas, shoir tasavvufiy ishq g‘oyasini ikki xil tarzda tasvirlab bergan. Shunisi ham borki, Majnun bolaligidanoq ishq oshkor bo‘ladi: maktabda Laylini ko‘rib, uning ishqida barchani unutadi. Ya’ni Majnun sulukning maqomat bosqichini o‘tashga ehtiyoj sezmagan, birato‘la hol darajasini egallagan solik obrazi. Farhod sarguzashti esa ikki qismdan iborat.

Birinchi qism (Yunoniston safari) – pirga erishish qiyinchiliklaridan tashkil topgan bo‘lsa, ikkinchi qism yorga yetish iztiroblaridir. Ana shu ikkinchi qismda uning avvalda yashirin bo‘lgan ishq oshkora tus olib, hol martabasiga ko‘tariladi, ya’ni Majnun darajasiga yetadi.

Dengiz safari, qaroqchilarga qarshi jang, dashtu vodiylarda sargardon kezish, tog‘ kesib suv chiqarish – bularning hammasi ramziy ma’noda oshiqning majoziy ishq yo‘lidagi chekkan ruhiy – psixologik azoblari, hajr qiynog‘i. Shu kabi Xisrav ham ilohiy ishqdan mahrumlik, dunyoviy zulmning timsoli. Xoqon va uning saroyidagi kishilar ilohiy ishqni tushunmagan, zohirbin kishilar bo‘lsalar-da, biroq ular oshiqqa zulm qilmagan edilar. Xisrav bo‘lsa Farhodning ashaddiy dushmani bo‘lib chiqadi.

Bunda Navoiy ikki xil maslak, ikki xil insoniy darajani qiyoslashga imkon topgan: Xisrav ham Shirinni sevaman, deydi. Ammo Xisrav ishq bilan Farhod ishq orasida yer bilan osmoncha farq bor. Xisrav ishq Alisher Navoiy «Mahbub ul - qulub»da bayon etgan ishq «marotib»laridan birinchisi – avom ishqiga to‘g‘ri keladi. Chunki Xisravning maqsadi Shirinni xotin qilib olish va o‘z haramiga qo‘shishdir. U zo‘rluk bilan bunga erishmoqchi bo‘ladi, shuning uchun Armanistonga lashkar tortib keladi. Uning iddaolari shohona, ishq ham xisravlarga xos. U Farhodning ishqini tushunmaydi, uni jinni, «majnun», deya kamsitadi. Farhod ishq esa pok va ilohiy. Buyuk muallif Farhod bilan Xisrav “munozara”sida ishq haqidagi ikki xil tushunchani qiyoslaydi. Bu «munozara» dostonning o‘zagidir. Navoiy dunyoqarashi, maqsad-muddaosi xuddi shu yerda aniq ifodalangan. «Munozara»dan bir – ikki bayt misol keltiramiz:

Dedi: qaydin sen, majnuni gumroh?

Dedi: majnun vatandin qayda ogoh.

Dedi: nedur sanga olamda pesha?

Dedi: ishq ichra majnunliq hamisha.

Ko‘rinadiki, Xisrav ham, Farhod ham «majnun» degan so‘zni tildan qo‘ymaydilar, lekin Xisrav buni kesatish, kamsitish ma’nosida ishlatga, Farhod iftixor bilan bu sifatni o‘ziga munosib biladi. Zero, Xisrav nazarida gadoning, jinnining malikani sevishi, buning ustiga malika ham uni yaxshi ko‘rishi mumkin emas. Mag‘rur shoh hamma narsa, jumladan, SHirin ham meniki bo‘lishi kerak, deb o‘ylaydi («gadolar qilmasun deb shohg‘a shirkat»). Shu tariqa Navoiy haq yo‘lida sayr etuvchi orif inson ishq bilan saltanat sohibi shoh «ishqi»ni salishtirib, haqiqiy oshiq qanday bo‘lishi kerakligini Farhod tilidan bayon etgan haqiqiy oshiq chindan ham o‘zini unutgan majnundur, u parvonaday o‘tga talpinadi. Ishq o‘tida yonmay kishi oshiq bo‘lolmaydi, deydi Farhod Xisravga qarab, ammo bu kuymak saodatidan «joh ahli mahrum!» Navoiy e’tiqodiga ko‘ra oshqlik va shohlik (umuman mansab) bir-biri bilan kelishmaydigan tushunchalar. Dostonda Navoiy yonib, berilib tasvirlagan ishq g‘oyasining muhim tomoni bu. Garchi Farhod ham aslida shaxzoda bo‘lsa-da, biroq u taxt-toj ilinji, ganju xazinadan butkul voz kechib, ishq

gavharini tanladi. Xisrav bo'lsa shohlik g'ururi bilan mast, demak, u ilohiy ishqqa noloyiq. Chin oshiq na rasvolikdan, na el malomatidan, na o'limdan qo'rqadi. Yor vasli zo'rlik, manmanlikni emas, zorlik va niyoz bilan ranj chekishni taqozo etadi. Xisravning omiyona savollari, do'q – po'pisalariga Farhod orifona javoblar qaytarib uni mot etadi. Ushbu «munozara» Nizomiy Ganjaviyning «Xusrav va Shirin», Xusrav Dehlaviyning «Shirin va Xusrav» asarlarida ham bor.

Biroq ularda ishq masalasida ikki qutbning to'qnashuvi, shohu darvesh dunyoqarashidagi chuqur ziddiyat Navoiyda bo'lganidek keskin va aniq ifodalangan emas. Vaqean, ulug' o'zbek shoiri buni «Farhod va Shirin» muqaddimasida qayd etib, salaflarda tasuvvufiy – orifona ishq tasviri namoyon emas, ular ko'proq Xisravga maddohlik etganlar, deydi. Vaholanki, shoirning vazifasi dardli dillar rozini kuylashdir. Shu maqsad yo'lida Navoiy Farhodni markaziy qahramon qilib oladi, xuddi shu tasavvufiy mazmun Navoiy asarini Nizomiy va Xusrav Dehlaviy dostonlaridan ajratib turadi.

III-BOB. MAVZUNI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

3.1. Yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda badiiy adabiyot oldida turgan vazifalar.

Bugungi voqelik milliy istiqlool g'oyasi targ'iboti masalasiga alohida e'tibor berishni talab qilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda mafkura targ'iboti eng dolzarb masalalardan biriga aylanganligini inobatga oladigan bo'lsak, uning targ'ibot-tashviqotiga ham yangicha texnologiyalar, usullar, vositalarni jalb qilish foydadan holi emas. «Bugungi xayotning o'zi oldimizga fuqarolik jamiyati institutlari tizimida ommaviy axborot vositalarining o'rni va rolini yanada mustaxkamlash vazifasini qathiy qilib qo'ymoqda. Ommaviy axborot vositalarini yanada erkinlashtirish, nodavlat matbuot nashrlari, radio, televidenie faoliyatini jonlashtirish, ularning Internet global tarmog'iga kirish imkoniyatlarini kengaytirish olib borilayotgan isloxotlar siyosatining ochiqligi va oshkoraligini tahminlashga, kuchli fuqarolik jamiyatining izchil shakllanishiga madad berishi darkor»¹ Milliy istiqlool g'oyasi targ'ibotining ta'sirchanligini oshirish vazifasi ham bu jarayonda yangi texnologiyalarni keng qo'llash zaruratini kuchaytiradi. Milliy istiqlool g'oyasi targ'ibotining ta'sirchanligini oshirishda adabiyot oldida xam talaygina

¹ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz- vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: 2010- 31-b

vazifalar turibdi. Xalqimiz yillar, asrlar davomida orziqib kutgan mustaqillikka erishib, o'z taqdirini qo'lga olganidan keyin har qanday taxdid va xatarlarga qaramasdan, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, mustaqillikni mustaxkamlash, erkin va farovon xayot qurish maqsadida amalga oshirilayotgan isloxlarni, eng muximi bu borada qanday murakkab bosqichlarni o'tishga to'g'ri kelayotganini chuqur anglab yetish darkor. Adiblarimiz ushbu masalalarga keng e'tibor qaratishlari lozim. Bugungi yoshlarimiz nafaqat o'quv dargoxlarida, balki radio-televidenie, matbuot, internet kabi vositalar orqali rang-barang ma'lumotlarni olishmoqda. Prezidentimiz tahbiri bilan aytganda «... shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga xam, bizning ezgu-maqсад-muddaolarimizga xam to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda va ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qathiy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz»¹. Biz o'z kelajagimizni qobig'imizga o'ralgan xolda emas, balki umumbashariy qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan xolda tasavvur qilamiz. Prezidentimiz tomonidan ta'kidlab o'tilganidek ota-onalar, o'kituvchilar ming tashviq-targ'ib qilishmasin, bugungi yoshlar mumtoz adabiyot namunalarini yoppasiga o'qishyapti, deya olmaymiz. Bu esa badiiy adabiyot namoyondalari oldiga zamonaviy axborot vositalari orqali adabiyotimizni keng targ'ib etish, Internet imkoniyatlaridan keng foydalangan xolda yetuk badiiy asarlarni yoshlarga yetkazish ustida bosh qotirishlarini talab qilmoqda. Yana bir muxim masala shundan iboratki, yozuvchilarimiz o'z istehdodlari bilan odamlarning ongi va dunyoqarashi, madaniy saviyasini yuksaltirish, xalq qalbining kuychisi bo'lishdek og'ir, murakkab, ulug' vazifani olishgan ekan, avvalo el-yurt oldidagi farzandlik burchini, mahsuliyatini chuqur sezishi, anglashi muxim ahamiyatga ega. «Mening fikrimcha, yozuvchilik- bu oddiy kasb emas, xudo bergan, istehdoddur. Bu-qismat, peshonaga yozilgan taqdir. Bu kasbga hech qaerda o'qitib, o'rgatib bo'lmaydi. Yozuvchilikning maktabi xam, dorilfunini ham bitta. U xam bo'lsa, bir umr xayotning ichida bo'lish, o'x xalqi bilan hamdardu hamnafas bo'lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir»².

Yuqorida qayd etib o'tilgan vazifalar badiiy adabiyot, uning vakillari, yozuvchilarimiz oldiga bir qator murakkab masalalarni qo'ymoqda. Yozuvchilar uyushmasi faoliyatining samarasini oshirishda eng muxim birinchi masala ijodkor o'zining ijtimoiy burchini qanday tushunish bilan bevosita bog'liqdir. Nega deganda, adibning so'zi, uning ijodiy mehnatining mahsuli jamiyat taraqqiyoti uchun naqadar zarur ekanini barchamiz, avvalo shu sohaga kirib kelayotgan va shu sohada faoliyat olib borayotgan adiblarning o'zi yaxshi anglab olishi kerak.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., «Ma'naviyat»-2008. 114-b

² Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. 17-18 b.

Shunday ekan istehdod sohiblarini topib tarbiyalash, ularning mehnatini munosib qadrlash eng asosiy vazifamizga aylanishi zarur.

Ikkinchi masala shuki, yozuvchilarimizning mashaqqatli ijodiy mehnatini to'g'ri va adolatli boholash masalasidir. Tegishli fondlar, korxona, tashkilotlarning xayriyalari bilan ularni rag'batlantirishni kuchaytirish zarur. Prezidentimiz aytganidek «...adabiyot masalasi- bu ma'naviyat masalasidir. Bu Fond yozuvchilarni qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, yurtimizda ijod sohasining, milliy madaniyatimizning rivoj topishi uchun, kelajagimiz uchun xizmat qilishini yoddan chiqarmasligimiz lozim»¹.

Uchinchi masala shuki, yozuvchilar uyushmasining hayotimizdagi o'rni va nufuzini yanada oshirishdan iborat. Uyushmaga ahzo bo'lib kirayotgan har bir inson avvalombor bu tashkilot uning ijodini rivojlantirish, asarlarini jamoatchilikka yetkazish, istehdodini ro'yobga chiqarish, mualliflik huquqlarini himoya qilish borasida amaliy yordam berishga qodir ekanini yaqindan his qilishi lozim.

To'rtinchi masala shuki, yosh ijodkorlar bilan ishlash masalasi. Istehdodli yoshlarni izlab topish va ularning iqtidorini ro'yobga chiqarishda chukur o'ylangan usullar, ya'ni aniq mexanizm zarurligini bugun adabiyotimiz manfaatlari talab etmoqda.

Beshinchi masala, bir vaqtlar Ozod Sharafiddinov boshlagan «Jahon adabiyoti» jurnali orqali boshlab bergan dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalarini tarjima qilish, chop etish, o'rganish bilan bog'liq tajribalar, chet el yozuvchilari bilan aloqalarni yanada rivojlantirish masalasiga yetarlicha e'tibor berilmayapdi. Biz ma'naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga intilayotgan ekanmiz, hech kachon o'z qobig'imizga o'ralashib qolmasligimiz lozim. Boshqa sohalar qatori xalqaro maydonda adabiyot sohasida ham aloqalarni kuchaytirishimiz kerak. «Qaysi mamlakatda bizning adabiyotimiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimizga hurmat bilan qarashadi, xorijdan biz nimalarni o'rganishimiz mumkin va, o'z navbatida, ularga nimalarni taqdim etishimiz mumkin- bugun masalalar xalqaro maydonda o'zligimizni namoyon etishda katta axamiyatga ega ekanini doimo yodda tutishimiz lozim»².

Va oxirgi masala-nashriyotlar va nashr masalasi. Bugungi kunda nashriyotlarga to'la erkinlik berilgan, ularning faoliyatiga hech kim chetdan turib aralasha olmaydi. Lekin mana shu erkinlikni to'g'ri tushunish, masalaga mahsuliyat bilan yondashish lozim. «..agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalombor buyuk

¹ Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. 23 b.

² Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. 33 b.

yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug‘ adib Cho‘lpon aytganidek, adabiyot yashasa –millat yashaydi»¹.

Mana shunday ma’suliyatli ishlarni amalga oshishida, milliy g‘oyamizning yoshlar ongiga singishida, ularning amaliy ko‘nikmalariga aylanib borishida adabiyotning imkoniyatlari cheksiz.

3.2. “Alisher Navoiy ijodiy merosida insonparvarlik g‘oyalarining aks etishi va ularning yosh avlod ma’naviy kamolotidagi o‘rni” mavzusi bo‘yicha dars ishlanmasi.

мавзу	Alisher Navoiy ijodiy merosida insonparvarlik g‘oyalarining aks etishi va ularning yosh avlod ma’naviy kamolotidagi o‘rni
--------------	--

1.1. Ta’lim berish texnologiyasining modeli

Mashg‘ulot vaqti-2 soat	O‘quvchilar soni: 25 – 35 gacha
<i>Nazariy mashg‘ulot rejasi</i>	1. Ma’naviy tarbiya tizimida badiiy merosning ahamiyati 2. Yosh avlod tarbiyasida Navoiy merosining ahamiyati
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> O‘quvchilarni Alisher Navoiy ijodiy merosini o‘rganishning yosh avlod ma’naviy tarbiyasidagi alohida ahamiyati bilag tanishtirish	
<i>pedagogik vazifalar:</i> • O‘quvchilarga Ma’naviy tarbiya tizimida badiiy merosning ahamiyati xususida tushuncha berish. • Yosh avlod tarbiyasida Navoiy merosining ahamiyati ta’sirini	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i> • O‘quvchilar Ma’naviy tarbiya tizimida badiiy merosning ahamiyati xususida ma’lumotga ega bo’lishadi; • Yosh avlod tarbiyasida Navoiy merosining ahamiyati

¹ Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor-ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. 38 b.

tushuntirib berish	
<i>Ta'lim berish usullari</i>	“piramida”, “Qanday”, “FSMU”, “Insert” texnologiyalardan foydalanish, muammoli usul, munozara, suhbat, aqliy hujum, tezkor-so'rov
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Jamoaviy, guruhlarda ishlash;
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Ma'ruza matni, o'quv materiallari, marker, skotch, qog'oz
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob

Mavzu “Alisher Navoiy ijodiy merosida insonparvarlik g'oyalarining aks etishi va ularning yosh avlod ma'naviy kamolotidagi o'rni” mavzusida nazariy mashg'ulotning

TEXNOLOGIK XARITASI

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>O'quvchi</i>
1 bosqich. Kirish	1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova)	Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladi
	1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shaklini e'lon qiladi	Yozib oladi
2 bosqich. Asosiy jarayon	2.1. Mavzu rejasining birinchi 'unkti rejasini bo'yicha ma'ruza qiladi (2-ilova) Ma'ruza bo'yicha “piramida” usulidan foydalangan holda o'quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Ma'naviy tarbiya tizimida badiiy merosning ahamiyati ? (3-ilova)	Yozadi, savolga javob beradi.
	2.2. Mavzu rejasining ikkinchi 'unkti bo'yicha ma'ruza qiladi (4-ilova). Ma'ruza bo'yicha «Qanday» usulidan foydalangan holda o'quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Globallashuvni tahmin etuvchi vositalar nima? (5-ilova)	Yozadi, savolga javob beradi.
	2.2. Mavzuda bayon etilgan masalalarni mustahkamlash «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. “FSMU” texnikasidan foydalangan holda guruhlariga to'shiriqlar beradi (6-ilova). Bu texnika guruhlarda ijodiy ishlashga yordam beradi, qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh to'shiriqlarini - qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini	Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar Guruhlarda ishlaydilar.

	umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. To'shiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi.	
3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi.	Tinglaydilar
	3.2. O'quvchilarning baholash mezonlarini e'lon qilinadi	Yozib oladi
	3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi (7-ilova)	Javob yozadi
	3.4 Navbatdagi mashg'ulotda ko'riladigan mavzuni e'lon qiladi va "Aqliy xujum" usulida jadvalga mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi (8-ilova).	"Insert" usulida jadvalni to'ldiradi.

1-ilova

Alisher Navoiy ijodiy merosida insonparvarlik g'oyalarining aks etishi va ularning yosh avlod ma'naviy kamolotidagi o'rni

Reja.


1. Ma'naviy tarbiya tizimida badiiy merosning ahamiyati
2. Yosh avlod tarbiyasida Navoiy merosining ahamiyati

O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'quvchilarni Alisher Navoiy ijodiy merosini o'rganishning yosh avlod ma'naviy tarbiyasidagi alohida ahamiyati bilag tanishtirish **O'quv faoliyatining natijasi:** O'quvchilarga Jahon taraqqiyotining turli darajalari. Globallashuvning milliy rivojlanishga o'tkazayotgan ta'siri va uning oqibatlarini. Iqtisodiy globallashuv ta'sirini tushunib etishadi.

2-ilova

**1-o'quv to'shriq
«'iramida» organayzerini to'ldiring**

Ma'naviy tarbiya tizimida badiiy merosning ahamiyati?





3-ilova

1-o'quv to'shriq

«Qanday» organayzerini to'ldiring

Muhim muammoning echimini to'ishga yordam beradi va “Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.





6-ilova

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni to'ldiring

1-guruh

Savol	Globallashuvning ijobiy tomonlari?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	Globallashuvning salbiy tomonlari?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	

(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

7-ilova

Umumlashtiruvchi savollar:

1. Ma'naviy tarbiya nima?
2. Ma'naviy tarbiyada adabiyotning imkoniyatlari?
3. Навоий асарларида комил инсонга хос фазилятлар?
4. Navoiyning odil shoh to'g'risidagi qarashlari?
5. Navoiyning kasb-hunar, mehnat to'g'risidagi qarashlari?

X U L O S A

Qayd etib o'tilganidek, mana shunday ma'suliyatli ishlarni amalga oshishida, milliy g'oyamizning yoshlar ongiga singishida, ularning amaliy ko'nikmalariga aylanib borishida adabiyotning imkoniyatlari cheksiz. Ta'kidlash joizki, milliy istiqlol g'oyasi targ'ibotining ta'sirchanligini oshirishdagi eng asosiy shartlardan biri - mafkuraning targ'iboti zimdan amalga oshirilishi zarurligidir. Inson unga ta'sir o'tkazilayotganini sezmasligi lozim. Aslida targ'ibot davomida mafkura so'zining ishlatilishi ham shart emas. Muxtasar qilib aytganda targ'ibot-tashviqot ishlarida adabiy asarlar quyidagi g'oyalarga, quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish muhim: oldimizga qo'yilgan maqsadlarga erishishdan har birimiz shaxsan manfaatdor ekanligimizga kishilarni ishontirish; kelajagimizni ko'z oldimizga keltirish imkonini beradigan, ertangi kunimiz qanday bo'lishini ko'rsatadigan materiallar tayyorlash; dolzarb qadriyatlarni singdirish maqsadida jamoatchilik fikriga shu qadriyatlarni jozibali qilib yetkazish; ommaviy axborot vositalaridan bilim ulashish va insonlarni aqliy boyitish quroli sifatida mohirona foydalanish; insonlarning erkin fikrlashini rag'batlantirish, ularni o'z fikrlarini himoya qilishga o'rgatish orqali mustaqil fikrlovchi insonni tarbiyalash;

taraqqiyotimiz yoʻlida gʻov boʻlayotgan illatlarni fosh etish va tanqid qilish yoʻli bilan ularni samarali «davolash»; ommaviy axborot vositalaridan haqiqat koʻzgusi sifatida foydalanish orqali insonlarning ularga ishonchini kuchaytirish; yaqin oʻtmishda sodir boʻlgan yorqin voqealarning xronikal filgʻmlarni yaratish yoʻli bilan yaxshi va yomon kunlarimizni bot-bot eslatib turish; insonlarda chuqur taassurot qoldirish maqsadida badiiy obrazlar orqali milliy mafkurani singdirish. Bunda targʻibot-tashviqot ishlarini puxta rejalashtirish, hissiyotlarga kuchli taʼsir qilish, jozibalilik, noanʼanaviy usullarni qoʻllash, oshkoralik, qadriyatlar doirasidan chiqmaslik, ommabop va tushunarli boʻlish, takrorlanishlar bilan kishilarning «mehdasiga tegmaslik» talab qilinadi. Mafkuraning targʻibotiga aynan shunday yondashish koʻproq samara beradi. Shundagina insonlarning salohiyati, mehnati, vaqti, mulki va mablagʻlarini tanlangan maqsad sari yoʻnaltirish mumkin. Bu esa mafkuraviy siyosatning natijasini moddiy narsalarda - yuqori sifatli mahsulotlarda, badavlat turmushimizda, bunyodkorlik ishlarida, erkin va farovon hayotda oʻz ifodasini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Karimov I. A. Oʻzbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar, 1-jild. –T.: «Oʻzbekiston», 1996.
2. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Asarlar, 2-jild. –T.: «Oʻzbekiston», 1996.
3. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar, 3-jild. –T.: «Oʻzbekiston», 1996.
4. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Asarlar, 8-jild. –T.: «Oʻzbekiston», 2000.
5. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mashulmiz. Asarlar, 9-jild. –T.: «Oʻzbekiston», 2001.
6. Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. Asarlar, 10-jild. –T.: «Oʻzbekiston», 2002.
7. Karimov I. A. Oʻzbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram boʻlmaydi. Asarlar, 13-jild. –T.: «Oʻzbekiston», 2005.
8. Karimov I. A. Yuksak maʼnaviyat- yengilmas kuch. –T.: «Maʼnaviyat», 2008.
9. Karimov I. A. Adabiyotga eʼtibor-maʼnaviyatga, kelajakka eʼtibor – T.: «Maʼnaviyat», 2009.

10. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: «O‘zbekiston», 2007.
11. O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida» (Yangi tahrirda) gi Qonuni. –T.: «Adolat», 1998.
12. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust. /«Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori». –T.: «Sharq», 1998.
13. O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida» gi Qonuni.1997 yil 29 avgust. / «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori». –T.: «SHarq», 1998.
14. G‘oya va mafkura. – T., «Ijod dunyosi» nashr uyi, 2002 yil.
15. Taraqqiyotning o‘zbek modeli. – T., «Ijod dunyosi» nashr uyi. 2002 yil.
16. Markaziy Osiyo: g‘oyaviy jarayonlar va mafkuraviy taxdidlar. – T., «Ijod dunyosi» nashr uyi, 2002 yil.
17. Imomnazarov M Milliy ma’naviyatimiz asoslari.. T,2006.
18. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. 1-2 kitob. –T.: «Movarounnahr», 2003.
19. Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotining g‘oyaviy asoslari. Mashul muharrir D.A. Alimova. –T.: «SHarq», 2001.
20. Otamurotov S. Milliy rivojlanish falsafasi, T-2005.
21. Ochildiev A. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlar. –T.: «O‘zbekiston», 2004.
22. Tulenov J., G‘afurov Z. Mustaqillik va milliy tiklanish. –T.: «O‘zbekiston», 1996.
23. Xudoyberdiyev X. Adabiyotshunoslikka kirish. T., 1995.
24. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. T., 1995.
25. G‘aybulloh as-Salom, Ne‘matulloh Otajon. Jahongashta “Boburnoma”. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1996.
26. Favoyidul-kibar. Toshkent, 1960.
27. O‘zbek adabiyoti tarixi, I-kitob. Toshkent, 1976
28. O‘zbek adabiyoti tarixi, II-kitob. Toshkent, 1977
29. Bertels Ye.E. Navai i Djami. M., 1965
30. Xamsa. Toshkent, 1960, 60-bet.
31. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. T., 1996.